

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O`RTA MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

Tabiiy fanlar
fakulteti dekani:
____ dots. A.Nazarov
“ ____ ” 2018 yil

**5630100-ekologiya va atrof muhit muxofazasi ta'lim yo`nalishi
bitiruvchisi**

TOSHKANOV IZZATILLO FARXOD O`G`LINING

**"Namangan viloyatidagi ekoturistik ob'ektlarning
yo'nalishlariga tavsif" mavzusidagi**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

«Himoyaga tavsiya etildi»
Ekologiya kafedra mudiri
PhD.f.f.d.S.Abdurahmanov
“ ____ ” 2018

BMI rahbari:
B.Kamolov

Namangan – 2018 yil

MUNDARIJA

	KIRISH.....	3
I-Bob.	EKOTURIZMNING ILMIY - NAZARIY ASOSLARI.....	6
1.1.	Ekoturizmning ilmiy asoslari.....	6
1.2.	Aholini barcha qatlamlarida ekoturistik ong va madaniyatni shakllantirish masalalari	11
II-Bob.	NAMANGAN VILOYATINING EKOTURISTIK OB’EKTlardagi YO’NALISHLARGA UMUMIY TAVSIF.....	24
2.1.	Namangan viloyatining ekoturistik rayonlari.....	24
2.2.	Ekoturistik rayonlardagi turistik yo’nalishlar va ularning o’ziga xos hususiyatlari.....	30
2.3.	Namangan viloyatida ekoturizmni rivojlantirishdagi istiqbolli yo’nalishlar.....	42
	XULOSA.....	50
	FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI.....	53

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Jahon miqyosida ekologik muammolarni yechimini topishning ijtimoiy-iqtisodiy samarali yo'li ekologik turizmni rivojlantirish deya e'tirof etilgan.¹ Chunki, u aholining salomatligini saqlab qolish, yangi ish o'rinlarini yaratish va yalpi ichki mahsulotni oshirishda katta ahamiyat kasb etmoqda. Jaxon bo'yicha tabiat milliy bog'lari hozirda 1200 tadan oshib ketdi. Keyingi yillarda, hususan, Kosta – Rika hududini katta qismini ekoturizm rivojlantirish ob'ektiga aylantirdi. Keniya davlatida ekoturizmdan tushadigan yillik daromad 500 mlrd. dollarga yetgan. Ekvador davlatida esa, bu ko'rsatkich 200 mln.dollarni tashkil etadi.² Shu sababdan, O'zbekiston mintaqalarida ekoturizmni samarali tashkil etish va ilmiy tadqiqotlar asosida mazkur tarmoq tarkibini takomillashtirishni taqazo etadi.

Jahonda ekoturizm sohasida rivojlanish tendentsiyalarini yuqori darajada tashkil etish, ularni davlatlar tomonidan qo'llab-quvvatlash, yangi marshrutlarni o'tkazish va takomillashtirishga ustivor ahamiyat berilmoqda. Shuningdek, hozirgi vaqtda, ma'muriy birlikliklar doirasida turizm, xususan, ekoturizmni shakllantirish, xizmat turlarini rivojlantirish orqali turistik marshrutlar atrofidagi aholi manzilgohlarida yangi ish o'rinlarini tashkil etish, aholi bandligini oshirish,tabiiy resurslardan samarali foydalanish va hozirgi holatini yaxshilash dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

Bugungi kunda respublika turizm va uning tarmoqlarida (eko, agro, tarixiy, diniy, ekstremal, shop) xizmat turlarini shakllantirish, turistik maskanlar imkoniyatidan samarali foydalanish, hududlarning tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy imkoniyatlarini hisobga olish, ko'p tarmoqli tur firmalarni rivojlantirish va ularning ixtisoslashuvi hamda hududiy tarkibini takomillashtirish bo'yicha qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida «turizm industriyasini jadal rivojlantirish, iqtisodiyotda uning ro'li va ulushini oshirish, turistik

¹ <https://tourlib.net/statti.tourism/bochkareva>.

² <https://articlekz.com>.

xizmatlarni diversifikatsiya qilish va sifatini yaxshilash, turizm infratuzilmasini kengaytirish», hamda «odamlarning ekologik xavfsiz muhitda yashashini ta'minlash»¹ yuzasidan muhim vazifalar belgilab berilgan. Bu borada, jumladan, tabiiy sharoiti va ijtimoiy vaziyati turlicha bo'lgan Namangan viloyatida ekoturizmning hududiylik, davriylik va komplekslik hususiyatlarini o'rganishga yo'naltirilgan ilmiy tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 22 yanvardagi 01-03-05-19-son Qarori va uning ijrosini ta'minlashdagi 2015 yil 10 martdagi «2015-2017 yillarda O'zbekistonda ekoturizmni rivojlantirish va ekoturistik potentsialini mustahkamlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi 2016 yil 2 dekabrda PF-4861 Farmoni va Namangan viloyati hokimining 2016 yil 16 fevraldagi «Namangan viloyatida turizm sohasini rivojlantirish dasturi to'g'risida»gi Qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Bitiruv malakaviy ishning ob'ekti va predmeti. Namangan viloyatining antropogen faoliyat ta'sirida o'zgargan tabiiy ekotizimlari tadqiqot ob'ekti bo'lsa, viloyatning hozirgi kundagi turistik rivojlanish omillari, hususiyatlari va hududiy tarkibi tadqiqot predmetidir.

Bitiruv malakaviy ishning maqsadi va vazifalari. Bitiruv malakaviy ishning *maqsadi* Namangan viloyatida atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish uchun ekoturizmning hududiylik, davriylik va komplekslik hususiyatlarini takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

Qo'yilgan maqsad quyidagi *vazifalarni* bajarishni taqazo etdi:

- ✓ Namangan viloyatini tabiiy va ijtimoiy geografik jihatdan tavsiflash;
- ✓ turizmga qo'yiladigan talablarni aniqlash va uni taxlil qilish

¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги ПФ-4947-сон «Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси тўғрисида»ги Фармони

- ✓ viloyatning ma'muriy birliklari asosida ekoturistik imkoniyatlarini aniqlash, monitoring olib borish uchun taklif va tavsiyalar berish;
- ✓ viloyat hududini ekoturistik rayonlashtirish, sayyohlik marshrutlarini ishlab chiqish va kelajak istiqbollarini belgilash.

Bitiruv malakaviy ishning tarkibiy tuzilishi va hajmi. Ish kirish, ikki bob, xulosa, adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan tashkil topgan. Uning umumiy hajmi 56 bet, shundan asosiy matn 50 bet. Matnda 2 ta jadval, 2 ta rasmlar joy olgan, 45 nomdagi adabiyotlar va 4 dan ortiq internet manbalari keltirilgan. Bitiruv malakaviy ishning kirish qismida mavzuning dolzarbligi, ishning ob'ekti va predmeti, maqsadi va vazifasi yoritilgan. Ishning **xulosa** qismida tadqiqot natijalari umumlashtirilgan.

I-BOB. EKOTURIZMNI ILMIIY-NAZARIY ASOSLARI

1.1. Ekoturizmni ilmiy asoslari

Hozirgi kunda ekologiya nafaqat mustaqil fan sohasi, balki fanlar tizimiga aylanib ketdi. Ekoturizm ana shu tizimda o'z o'rniga ega sohadir. 1990 yildan buyon ekoturizmga rasmiy turizm industriyasi statusi berilib, har yili xalqaro "Annual World Congress on Adventure Travel & Ecotourism" simpozium o'tkazish va nodavlat notijorat tashkilotlarini tuzish huquqi berildi.

2002 yil Janubiy Afrika Respublikasining Yoxannesburg shahrida bo'lib o'tgan Butunjahon Sammitida qabul qilingan muhim xalqaro hujjatlardan biri «Barqaror rivojlanish Butunjahon Sammiti (BRBS) qarorlarini bajarish rejasi»ning IV bo'lim 24-26 moddalarida milliy davlat chegarasida va uning tashqarisida atrof muhitni turizm orqali muhofaza qilish masalasi ko'tarildi. Undan tashqari "Xalqaro ekoturizm yili", "Xalqaro madaniy meros yili"ga bag'ishlangan yuzlab uchrashuv va anjumanlarda (2002 yil), Kvebek deklaratsiyasi va Butunjahon turizm tashkilotining «Global turizm etika kodeksi»da turizmning eng ommalashayotgan tarmog'i bo'lgan ekoturizmni rag'batlantirish zarurligi ta'kidlanib o'tildi hamda tegishli qarorlar qabul qilindi. Chunki, ekologik muammolar yechimini topishning yana bir yangi jihati ekologik turizmni rivojlantirish orqali aholining ekologik ong va madaniyatini ko'tarishdir. Tabiiy muhit insonlarning nafaqat tomosha arenasi, balki yashash makoni ekanligini anglagan kishi atrof muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan ehtiyotkorona foydalanish, buzilganlarini qayta tiklash o'zi va bugungi hamda kelajak avlodlar uchun qanchalik zarur ekanligini biladi va ongli ravishda unga sarf-harajatlar qiladi. Tabiat zaminida ekologik turizm va uning boshqa turdagi turizm bilan farqi nimada ekanligini ajratib olish lozim bo'ladi.

Turizm terminini birinchi bo'lib 1830 yilda V.Jekmo fanga olib kirgan. Avvalo turizm so'ziga to'xtaladigan bo'lsak, u frantsuz tilida *tourisme* – sayohat qilish, dam olish bilan bir qatorda sport va umumtarbiyaviy yoki siyosiy-ma'rifiy vazifalarni bajarish degan ma'noni anglatadi¹.

¹ Краткий словарь иностранных слов.- М.: "Изд. Иностранных и национальных словарей", 1958.- С.404.

Ekoturizm – insonlarning dam olish, sport bilan shug'ullanish, sog'lomlashish, ma'rifiy-ma'naviy (umumtarbiyaviy) ishlarni amalga oshirish kabi maqsadda hamda ekologik vazifalarni bajarish uchun doimiy yashash joylaridan chiqib, atrof tabiatga qiladigan sayohatlari.

Ko'pgina tadqiqotchilar (R.Davidov, 1990; A.V.Drozdov, 1999; T.V.Bochkareva, 2003; V.V.Xrabovchenko, 2003; L.I.Egorenko, 2003; N.Tuxliev, A.Taksanov, 2001, A.Taksanov, 2005; N.Tuxliev, T.Abdullaeva, 2006, A.Nigmatov, N.Shomuratova, 2004, 2005, 2006, 2007 va boshqalar) ekoturizmni turlicha talqin qiladilar. "Avstraliyaning Milliy ekoturizm Strategiyasi" da ekoturizmni tabiatga yo'naltirilgan turizm, deb ifodalangan. Ekologik barqarorlik qoidalaridan kelib chiqqan tarzda u o'z ichiga ekologik ta'lim va tarbiyani qamrab oladi.

Tabiatni muhofaza qilish Xalqaro Ittifoqi (TMQXI) ekoturizmni – atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish, unga sayr qilganda "yumshoq" ta'sir ko'rsatish yo'li bilan madaniy va tabiiy me'rosni o'rganish hamda zavqlanish, nisbatan buzilmagan tabiiy hududlarga ekologik ma'suliyatli sayohat, deb tushuntiradi.

Tabiatni muhofaza qilish Xalqaro Ittifoqi ta'rifiga yaqin tushunchani *AQSh Ekoturizm jamiyati* berib, ekoturizm – mahalliy aholi va tabiatni muhofaza qilishga ko'maklashuvchi tabiiy hududlarga ma'suliyatli sayohat, deb ta'riflaydi.

Butunjahon yovvoyi tabiat jamg'armasi ekoturizmni lo'nda qilib "atrof muhitni muhofaza qiluvchi tabiiy turizmdir" deydi.

Yuqorida sanab o'tilgan barcha ekoturizm tushunchalarida, bizning fikrimizcha, quyidagi ekoturistik shartlar ifodalanmay yoki to'lig'icha ta'riflanmay qolingan:

- ekoturizm bilan tabiatga qilinadigan turizm turi va vazifalari aralashtirib yuborilgan;
- ekologik inqirozli hududlar ham ekoturistik ob'ekt bo'lishi mumkinligi yaqqol ko'rsatilmagan;
- ekoturistlarning asosiy maqsadlari, doimo ham tabiatni muhofaza qilish bo'lmaydi, lekin ularni atrof muhitga nisbatan ehtiyotkorona munosabatda bo'lishi

va undan tushgan foydaning aksariyat qismini o'sha ekoturistik ob'ektni muhofaza qilishga yo'naltirishi lozim bo'ladi. Aks holda ekoturizmni tabiatga qilinadigan turizmdan farqi qolmaydi.

- buzilgan geografik komplekslari va ularning komponentlarini tiklash masalasi qo'yilmagan yoki u holat yetarlicha ifodalanmagan.

Ekoturizmning umumiy tushunchasidan kelib chiqqan tarzda, biz uning mazmunidagi quyidagi holatlarga o'z e'tiborimizni qaratishimizga to'g'ri keladi.

Birinchidan, *ekoturizm sub'ekti yoki uning qatnashchilari bo'lib jismoniy va yuridik shaxslar hisoblanadi.* O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga binoan *jismoniy shaxslarga*-muayyan davlat fuqarolari, chet el fuqarolari, fuqaroligi bo'lmagan insonlar kiradi. O'zbekiston Konstitutsiyasining 50-moddasida esa barcha fuqarolar, qanday faoliyat bilan shug'ullanmasinlar, atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishga majburdirlar, deyilgan. Ma'lumotlarga qaraganda¹ ekologik turizm bilan band bo'lgan jismoniy shaxslar atrof tabiiy muhitga yuridik shaxslarga nisbatan 3-4 barobar ko'proq zarar keltirar ekanlar. **Yuridik shaxs** - xo'jalik yuritishida yoki operativ boshqaruvida ekologik turizm bilan shug'ullanish imkoniyatini beruvchi mol-mulkka ega bo'lgan hamda o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob bera oladigan, o'z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, qo'yilgan majburiyatlarini bajara oladigan, sudda da'vogar va javobgar bo'la oladigan tashkilot, korxonalar, muassasalardir.

Yuridik shaxslar, jismoniy shaxslardan farqli, yuridik maqomiga ko'ra uyushgan, maxsus ruxsatnomaga ega bo'lgan, balans va smetasida turizmga oid tegishli harajatlarni ko'zda tutgan, salbiy ekologik oqibatlariga o'zining mol-mulki bilan javob bera oladigan yoki da'vogar bo'la oladigan shaxs hisoblanadi. Boshqacha qilib aytganda, davlat, nodavlat va o'zini-o'zi boshqarish organlari tomonidan boshqarish va tartibga solish imkoniyati yuqoriligi bilan ajralib turadigan ekologik turizm qatnashchilari bo'lib yuridik shaxslar hisoblanadi. Shuning uchun ham kelajakda maxsus tayyorgarlikka va javobgarlikka ega bo'lgan

¹ Отчет Межправительственной Комиссии по туризму.- Гаага, 1999.- 123 с.

ekologik yo'nalishdagi turistik tashkilotlarni rivojlantirish xalqaro hamjamiyat, davlat va jamiyatning asosiy vazifalaridan bo'lib qoladi.

O'zbekistonda xalqaro Ekosan jamg'armasi qoshida «Ekosan-tur» markazi 2002 yildan buyon faoliyat yuritib kelmoqda. U barcha davlat va nodavlat organlari bilan birgalikda Respublikamizning go'zal tabiat maskanlariga sayohatlarni uyushtirish, fuqarolarimizni o'zga yurt tabiati bilan tanishtirishni maqsad qilib qo'ygan. «Ekosan-tur» xalqaro markazi «Ekoturizm va barqaror rivojlanish» mavzusida davlat idoralari, shaxsiy turistik firmalar va kompaniyalar, jamoat tashkilotlari, diplomatik korpus hamda xalqaro tashkilotlar rahbarlari va vakillari ishtirokida 2005 yil mart va 2006 yil iyul oylarida Toshkent shahrida xalqaro konferensiya hamda ommaviy bayramlarni o'tkazdi. Konferensiyada kelajakda O'zbekistonda ekoturizmni rivojlantirish uchun tavsiyalar ishlab chiqildi va ularni tegishli davlat organlari hamda turistik kompaniyalarga mazkur tadbirlarni amalga oshirish uchun yo'naltirildi.

Ikkinchidan, ekoturizm o'z mazmun va mohiyatiga ko'ra shaxslarning turg'un yashab turgan joylaridan ma'lum bir maqsadlarni ko'zlagan holda o'zga ob'ektga (joy va makonga) qilgan sayohatlari. Bu o'rinda ikki masalaga aniqlik kiritib olish maqsadga muvofiq. Avvalambor, sayohatchi va sayyohlik tushunchasiga. Kishilarning qanday harakatlari aynan sayohlikka kiradi (O'zbekiston Milliy ensklopediyasida uni turizm deya e'tirof etilgan¹).

Kishi sayohatchi bo'lishi uchun doimiy yashash joyidan pul to'lanadigan faoliyat bilan shug'ullanmagan holda 24 soatdan 6 oygacha bo'lgan uzluksiz muddatga vaqtinchalik yashash joyga (mamlakatga) borib kelishi yoki u yerda kamida bir tunni o'tkazishi zarur².

Ekologik sayyohlik - zamonaviy turizmning yangi yo'nalishlaridan biri bo'lib, oxirgi o'n yillikda butun dunyoda keng miqyosda rivojlanmoqda. Ma'lumotlarga qaraganda³ u sayyohlik bozorining 10-20 % qamrab olgan, o'sish sur'ati esa umumiy turizm industriyasining o'sish sur'atidan 2-3 marotaba yuqori

¹ Ўзбекистон Миллий энциклопедияси.-Т.:«ЎЗМЭ давлат илмий нашр.»,2004, 7-сон. 428-б.

² Юридик энциклопедия.-Т.: «Шарқ», 2001. 457-б.

³ Ердавлетов С.Р. География туризма: история, теория, методы, практика. – Алматы, 2000.- 336 с.

ekan. Shuningdek, ekoturizm atrof muhit muhofazasining samarali vositasi va barqaror rivojlanishning mustahkam «kaliti»dir. Ekoturizm birinchi navbatda tabiat bilan bevosita muloqotda bo'lishga, uning go'zalligini va salbiy hodisalarini his etishga, tabiat qo'ynida faol dam olish va geografik komplekslarni nisbatan barqarorligini saqlab qolishga qaratilgandir.

Ekoturistik faoliyatning turli jihatlariga oid bo'lgan tadqiqot ishlari Rossiya Federatsiyasida oxirgi 12-15 yillar ichida amalga oshirilib kelinmoqda. Bunda Rossiya xalqaro turizm akademiyasining ekologik turizm kafedrasini, shuningdek, Tabiatni muhofaza qilish Xalqaro Ittifoqi hamda "Qo'riqxonalar" ekotsentri faollik ko'rsatmoqdalar. Jahonda ekoturizm sohasida yaqqol ajralib turgan 4 maktabni ko'rsatish mumkin. Bularga Amerika, Avstraliya, nemis hamda Meksika maktablari. Ularning ekoturistik faoliyatga bo'lgan munosabatlari o'zining turli-tumanligi bilan ajralib turadi. Mamlakatimizda ekoturizm yangi soha bo'lganligi sababli unga oid tadqiqotlar boshqa mamlakatlardan ortda qolmoqda. Uning iqtisodiy jihatlari N.Tuxliev (2001), A.Taksanov (2005), T.Abdullaeva (2006) va boshqalarning ishlarida o'z aksini topgan. 2007 yil «O'zbekiston Respublikasida ekologik turizmni rivojlantirish Kontsepsiyasi»ni ishlab chiqilishi bu sohada olg'a bosilgan bir qadam bo'ldi. Ushbu Kontsepsiyada ekoturizmning O'zbekistondagi salohiyati, maqsadi, tashkiliy-huquqiy masalalari, Vatanimizda uni bosqichma-bosqich rivojlantirish uchun zarur bo'lgan dastlabki qadamlar, yangi sohaning yaqin kelajakdagi istiqbollari, hamda ekologik ta'lim-tarbiya va ijtimoiy-iqtisodiy masalalari bo'yicha omillar yoritib berildi. Mazkur kontsepsiyaning "Ekoturistik fan, ta'lim, tarbiya va targ'ibot" bandida – Ekoturizmga oid ilmiy tadqiqotlarni jadallashtirish uchun fundamental, amaliy va innovasion loyihalar bo'yicha davlat grantlarini ajratish hamda tanlovlarni o'tkazish; Ekoturizm yo'nalishidagi ilmiy ishlarni muvofiqlashtirish maqsadida Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi qoshida Ilmiy amaliy Markazni tashkil etish; Ekoturizm yo'nalishidagi yuqori malakali kadrlarni tayyorlash uchun Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy Attestatsiya Komissiyasining Ixtisoslashgan Kengashlari tarkibida maxsus

shifrlarni (masalan:“Ekoturistik boshqaruv va biznes”, “Ekoturizm iqtisodiyoti” kabi mutaxassisliklarni) tarkib toptirish masalalarini ko’rib chiqish;

“Ekoturistik xizmat”,“Ekoturistik marketing va menejment”, “Ekoturizm gidi” kabi mutaxassisliklar bo’yicha o’rta bo’g’indagi kasb-hunar ta’limi, bakalavr, magistr, aspirantura va doktorantura, ya’ni tegishli yo’nalishdagi kadrlar tayyorlashning uzviyligini ta’minlash; Hozirgi kunda ekoturizm O’zbekistonda ham ilmiy yo’nalish, o’quv kursi va iqtisodiyot tarmog’i sifatida rivojlanib va shakllanib bormoqda.

1.2. Aholini barcha qatlamlarida ekoturistik ong va madaniyatni shakllantirish masalalari

Ekologiya va madaniyat juda keng qamrovli tushunchalardir. Madaniyat ekologiyaga va aksincha, ekologiya madaniyatga turli sohalar ta’sir ko’rsatadi. Bu tushunchalar uchun umumiy bo’lgan manbaalar ham xilma-xildir. Faqat madaniyatli kishigina tabiat va jamiyatning o’zaro ta’siri yo’lga qo’yishga intiladi. Bu borada faoliyatini ham uning madaniyati belgilab beradi. Madniyat odamlarni bilimli qilishga, ularga ish tartib – qoidalarini o’rgatishga, qolaversa, ishlab chiqarishni, texnika va fanni ekologiyalashtirishga xizmat qiladi.

Ekologik madaniyat quyidagildarni qamrab oladi: tabiatni muhofaza etish madaniyati, tabiat boyliklaridan foydalanish madaniyati,ekologik tizimni o’zgartirish madaniyati. O’zida ekologik madaniyat shakllantirish shakllantirgan inson bir tuman miqyosida tabiatni muhofaza etish borasidagi g’amxo’rlikni undan uzoqlardagi ekologik vaziyatlarga ham samarali ta’sir o’tkazishini teran tushunadi. Tabiiy muhitdagi kamchiliklarni bartaraf etish-barcha xalqlar va millatlarning ishidir. Ular faoliyatini bir maqsad yo’lida birlashtirish ekologik muammoni hal etishning muhim sharti hisoblanadi.

Tabiiy muhitni muhofaza etish va tiklash masalasi millionlab odamlarning nafaqat tabiatni muhofaza etish va tiklash ishida faol ishtirok etishlarini ta’minlaydi, balki tabiatga nisbatan befarq va ayniqsa, yovuzlarcha munosabatta bo’lishga toqatsizlikni uyg’otadi.

Ekologik madaniyat sohibi bo'lish-faqat tabiatga zarar keltirmaslik emas, balki uning gullab yashnashi, yanada gullab yashnashi, yanada yaxshilanishiga hissa qo'shishi, uning, tabiatga beshafqat bo'lganlarga qarshi kurashmoq ham demakdir. Hozirgi vaqtda respublikamiz miqyosida xuddi ana shu yo'nalishda ish olib boradigan "Ekosan" Xalqaro jamoatchilik jamg'armasi tuzilgan. Uning shiori: "Tabiatga oqilona munosabatda bo'l!". Jamg'arma faoliyati doirasida, shubhasiz, aholing ekologik ongini shakllantirish ma'rifatini yuksaltirish va tabiatni muhofaza qilish bo'yicha ishlar o'tkazilmoqda.

O'quvchilarga faqatgina tabiat ne'matlaridan oqilona foydalanish asoslarini o'rgatish bilangina ularda ekologik madaniyatni tarbiyalab bo'lmaydi. Yoshlarni tabiatdan oqilona foydalanishga, ma'naviy-madaniy boylik yaratishga o'rgatish, shuningdek, ularga tabiat faqat foyda olish uchungina emas, balki, go'zallik qonunlariga ko'ra o'zgartirilishini tushuntirish ahloqiy talablarga to'la muvofiq keladi. O'quvchi-yoshlarda ekologik madaniyatni shakllantirish jarayonida quyidagi tartiblarga amal qilish maqsadga muvofiqdir.

Birinchidan, o'quvchilarning hissiyotiga ta'sir etish, ular qalbida yoshlik chog'laridanoq tabiatga muhabbat uyg'otish lozim. Bu tarbiya qancha erta boshlanib, izchil rivojlantirilsa, u shunchalik ijobiy samara beradi.

Ikkinchidan, o'quvchilar ongida tabiatni muhofaza etish va u bilan oqilona o'zaro ta'sir masalalarida faol hayotiy nuqtai-nazarni shakllantirish. Uni insonning etik ahloqiy saviyasi darajasi tarzida tavsiflash mumkin. Jamiyatnig har bir a'zosi, biznig hozirgi kunlarimizda ham, uning tabiiy muhit holatiga bog'liqligi kamayish o'rniga toboro ortib borayorganini anglashi zarur. Demak, har birimiz tabiatni asrab-avaylamog'imiz darkor. Fan-texnika taraqqiyoti uchun, ayniqsa uning yutuqlaridan amaliy maqsadlarda foydalanish uchun mas'ul bo'lgan shaxslar oldida ob'ektiv talablar turadi. Ular tabiatning nozik jihatlarini hisobga olish, uning mustahkamlik "chegara" sidan o'tib ketilishiga yo'l qo'yilmasligi, o'ziga xos murakkab va o'zaro bog'liq hodisalar mohiyatin teranroq anglash, qaytmas jarayonlarni keltirib chiqarmaslik uchun tabiiy qonunlarga zid ishlar qilmasligi kerak.

Uchinchidan, ekologik madaniyatni yuksaltirish ekologik ta'lim olishni yuksaltirishni talab etadi. Kasb – hunar ta'lim muassasalari bitiruvchilari mustaqil kasbiy faoliyati jarayonida ijtimoiy, tabiiy va texnikaviy fanlarni ham o'rganib borishlari lozim bo'ladi. Olingan bilimlarni kelgusida boyitish va rivojlantirish esa, mustaqil ishlashni talab etadi. SHuningdek, bunda korxonalar va tashkilotlarda ekologik yo'nalishda ish olib boriladigan tarbiyaviy ishlar ham katta yordam beradi.

Ekologik madaniyatni shakllantirish hozirgi vaqtda shakllanayotgan yangi fan- ijtimoiy ekologiya qonunlarini qamrab olgan ilmiy ijtimoiy tarqqiyot nazariyasiga tayanadi. Agar tabiiy jaryonlarni o'rganishga yo'nalagan an'anaviy fanlar tabiatni "bo'ysundirish" maqsadida jamiyatning tabiatga ta'sirini kengaytirish ehtiyojlari asosida paydo bo'lgan bo'lsa, ijtimoiy ekologiya esa, odamlar hayotining tabiiy sharoitlarini muxofaza etish va yaxshilash uchun jamiyatning tabiat bilan o'zaro ta'sirini uyg'unlashtirish zarurati tufayli yuzaga keldi.

Kasb-hunar kollejlari o'quvchilari hayotga mustaqil qadam qo'yganlarida tabiatning "bo'ysundiruvchisi"ga emas, balki uning himoyachisiga aylanishi kerak. Bu ishda shubhasiz, ularga ustozlari, murabbiylari va tarbiyachilar yordam berishadi. O'zbekiston mustaqilligini qo'lga kiritgach, milliy qadriyatlarni tiklash, ma'naviy-ma'rifiy madaniyatimiz tarixini o'rganish va uni boyitish yo'lida katta tadbirlar o'tkazilmoqda. Bunda o'zbek davlat turizm kompaniyasining tashkil etishi muhim voqea bo'ldi. Bu tashkilotning faoliyati aholining chet mamlakatlarga sayohat qilishini ta'minlash, yoshlarni o'lkamizdagi tarixiy madaniy maskanlari, zamonaviy qurilishlar va erishilayotgan yutuqlarni tanishtirishga qaratilganligi bilan muhim ahamiyat kasb etmoqda. Yurtimizda 2014 yilni "Sog'lom bola yili" deb atalishida katta hikmatlar va hal qilinishi lozim bo'lgan muammolar juda ko'p. Ular ichida o'sib kelayotgan yosh avlodni jismoniy sog'lom va ma'naviy-ekologik komil insonlar qilib tarbiyalash ishlari muhim o'rin tutadi. Insoniyat sivilizatsiyasini muhofaza etish va rivojlantirish uchun bioqatlam yomonlashishi, uning qimmatli xossa va sifatleri yo'qolishining oldini olish, unga yo'l qo'ymaslik

va uni sifat jihatidan yangi holat-noosferaga, ya'ni insonning oqilona faoliyati sohasiga o'tkazish borasida dunyoviy dasturlar zarur.

Inson – tabiatning uzviy bir bo'lagi. Bu haqiqatni anglab yetish-insonlarga uning maqsadini teranroq anglab yetish va tabiatning buyuk boyliklarini kelajak avlod uchun tejab-tergash va asrashda mas'ullikni his etishga yordam beradi. Vatanimiz boyliklari bilan shunchaki faxrlanish yoki maqtanish aslo vatanparvarlik emas, aksincha ularni kelajak avlodlar uchun asrash va ko'paytirish borasidagi say'-harakatlar haqiqiy vatanparvarlik ko'rinishidir. Vatnparvarlik uchun mustahkam asos qay tarzda yetiladi? Vtanparvarlik insonning ijtimoiy-maishiy manfaati va haqiqatlarida juda yuqori turadi. U-vatanga bo'lgan mehr-muhabbat, ruh va qalb kuchidan kamol topgan his va aqldan oziq oladi. Aqli g'aflat soyasida qolgan inson vatanparvarlikni his etolmaydi. Bunday odam faqat shaxsiy halovati uchun yashab o'tadi, xolos. Vatanga bo'lgan munosabat beg'ubor, musaffo bo'lishi kerak. Faqat muhabbatgina insonni g'aflatdan qutqaradi. Biroq biz hanuz o'z tabiatiga soxta g'oyalar, yolg'on va aldovlar singib ketgan sobiq jamiyat ta'siridan butunlay qutulganimiz yo'q. Qo'rquv, hadiksirash, ko'nikmalari asoratidan ong hali beri ozod bo'la olmaydi. Buning uchun ma'naviy zamin yetilishi zarur. Hurlik bor joyda erkin fikr almashiladi, bilim olinadi. Hurlik bor joyda rivojlanish, o'sish, parvoz bor.

Ekologik muammolar ham uzoqni, faoliyat oqibatini ko'ra bilmaslik qolaversa, insonning munosabatlari yohud ma'naviy olamidagi nomuvofiqlik va nomukammalliklari natijasidir. Ekologik tafakkur kishining bilimi, madaniyati, tarbiyasi darajasini belgilaydi. Ekologik madaniyati yuksak har bir odam o'zining kasbi va unga dahldor bo'lmagan faoliyatlarida ham insonning yanada kamol topishi, uning sihat-salomatligini muhofaza qilish hamda mustahkamlash borasida ruhiy,hissiy, ijtimoiy muhitning eng yaxshi shart-sharoitlarini tashkil etish va yaratish maqsadiga qat'iy amal qilib yashaydi. Yangi ekologik fikirlash tarzini shakllantirish nihoyatda murakkab ishdir. Bundan bir necha yil muqaddam kishilar "tabiatni bo'ysundirish","tabiat ustidan g'alaba qilish" shiorlari ostida xudbinona ishlari bilan tabiatga zug'um o'tkazdilar. Tabiat ustidan hech kim hech qachon

g'alaba qilolmasligi to'g'risida o'ylab ham ko'rilmadi. Endilikda bizga shunday ta'lim –tarbiya zarurki, barcha kelajak avlodlarimiz ekologik axloqiylik falsafasini tamomila o'zlashtirib olishsin.

Ekologik bilimlarning tarixida falsafiy qarashlarning mavjudligi bu sohani tarixiylikidan dalolat beradi. Qadimdan rivojlanib va shakllanib kelgan bu g'oya va fikrlar zaminida "Tabiatga ziyon keltirma", -degan asosiy qoida yotadi. Bu qoida tabiat ekologiyasiga ham, jamiyat ekologiyasiga ham bab-barobar taalluqlidir. Hozirgi vaqtda Amerika va boshqa mamlakatlarda "teran ekologiya" degan atma mavjud. Teran ekologiyaga muvofiq insonni Yerdagi hayotning boshqa tur shakllari bilan qiyoslab, kishilar ongini o'zgartish va oxir-oqibatda sayyoramizdagi ekologik vaziyatni yaxshilash mumkin. Dunyodagi ko'pgina mashhur ekologlar turli ilmiy safarlarda bo'lib, kuzatuv ishlari olib borishganda hamma joyda deyarli bir xil manzarani ko'rishgan. Ifloslangan havo, qurib qolgan daryo suvlari, zaharli oziq-ovqatlardan xastalangan kishilar qiynalib yashasalar-da, ulardan ko'pchiligi ekologik muammoga befarq qaraydilar. Ularning shaxsiy va oilaviy manfaati sayyoramiz muaffoligi muammosidan ko'ra muhimroq turadi. Nima uchun shunday? Ko'pgina hollarda muayyan joydagi atrof – muhitning ekologik holati shu qadar ayanchliki, uni ko'rgan kishida chorasizlik tuyg'usi uyg'onadi xolos. " Bu ekologik muammo davlat miqyosida hal etilmas ekan, u holda mening qo'limdan nima ham kelardi", deb o'ylaydiganlar ham topiladi. Ammo ekologik vaziyatga ta'sir qiluvchi faoliyat, hatti-harakat, masalan yirik korxonalar qurish kabi tadbirlar hamma vaqt biror shaxsning aniq qaroriga bog'liq. Chunki, bunday kishilar ko'pincha o'z qarorining oqibati tabiatga katta zarar keltirishi haqida o'ylab ko'rmaydi, daryo va qushlarning nola-yu dardlarini his qila olmaydi.

Ona sayyora taqdiri va har bir insonu-jonzodning taqdiri o'zaro bog'liqdir. Yer –yagona, uzviydir. Hech kim, hech qaysi jonzot tabiatsiz yashay olmaydi, tomirlarimiz tabiat bilan tutashgan. Sayyoramizda sodir bo'layotgan hodisa-jarayonlarni o'z hayotimizda yuz berayotgandek tushunishimiz lozim. Mashhur ekolog olim Arne Naess o'z his-kechinmalarini shunday ta'riflab beradi:"U shundoqqina ko'z oldimda yuz berardi. Boyaqishning jon talvasasida titrashini

kuzatib, yuragim uvishib ketdi. Men uning azob va iztiroblarini ko'rib turdim. Uni saqlab qolishning iloji bo'lmadi. U mening qo'limda jon berdi. Men dahshatga tushdim...". u ko'z o'ngida jon bergan hashorat o'rniga o'zini qo'yib ko'radi. Uni o'zi bilan taqqoslaydi. Bu hodisa uni befarq qoldirmaydi. O'zini boshqa jonzotlarga taqqoslamasdan turib, inson hech qanday shafqat va hamkorlik to'g'risida o'ylamaydi. Bu-teran ekologik falsafadir.

Tabiat o'z qonunlari bo'yicha yashashi kerak. Ba'zan yaxshi niyat bilan tabiat ishiga aralshib, uning qonunlarini buzib qo'yamiz va ko'pincha unga zarar keltiramiz. Tabiatdagi ko'plab sabab va oqibatlar fanda hali chuqur o'rganilmagan. SHuning uchun ham uning ishlariga hadeb aralashavermaslik, ko'pgina hollarda esa " tabiatning o'zi yaxshi biladi" aqidasiqama amal qilish tavsiya etiladi.Uy hayvonlari va xonaki qushlar bilan esa boshqacha ish tutiladi.Ayniqsa,ular qarovsiz qoldirilsa, qiynalib qolishadi. Natijada bu jonzodlar erkinlikda tezda halok bo'lishadi, chunki ular tabiiy sharoitdagi hayotga moslashmagan bo'ladilar. Xonakilashtirilgan hayvonlarni o'z holiga tashalab qo'yish ahloqqa ziddir. Tarbiyachi o'quvchilarga o'rgatadigan ahloqiy me'yorlar va baholar haqidagi bilim ularning tabiat bilan o'zaro munosabatlari shaklini tanlashda tayanch vazifasini o'taydi. Kelgusida o'quvchilar bu bilimlarni mustaqil holda to'ldirishlari kerak.U ekologik mavzuda yozilgan adabiyotlar, olingan qo'shimcha ma'lumotlar asosida u yoki bu aniq vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qila olishi lozim.

O'smirlar va qizlar o'zlaring tabiatga bo'lgan munosabati ularning ahloqiy yetukligi va tarbiyalanganligini belgilovchi sifat ekanligini anglashlari zarur. Ijtimoiy tadqiqot natijalari o'quvchilar orasidagi mazkur yo'nalishdagi tarbiyaviy ishlarning dolzarbligini ko'rsatadi.Ko'pgina hollarda ayrim yoshlar uy hayvonlariga shafqatsiz munosabatda bo'lishadi.Buni statistik tahlil va kuzatish natijalaridan ham bilsa bo'ladi.Bu esa bolalarni oila,maktab va boshqa ta'lim muassalarida ahloqiy jihatdan tarbiyalashada yo'l qo'yilgan xatolar oqibatidir. Aslida, ular jonzotlarga nisbatan shafqatsiz bo'lish ma'naviy nuqson va uning kelgusida og'ir oqibatlarga olib kelaishidan xabar beruvchi tashvishli ishorat sifatida qaramog'i kerak. Ba'zan kasb-hunar kollejlari ham bunday toifadagi

bolalar uchrab turadi. Agar ular bu yerda ham zaruriy ekologik ta'lim va tarbiya olishmasa, u holda tabiatga ham, odamlarga ham, o'z-o'ziga ham ko'p zarar keltirishi mumkin.

Hozirgi zamonda ko'pgina odamlarning tabiatdan "uzoqlashib qolish" ma'lum darajada ularning ma'naviy olamiga, tarbiyasiga ta'sir ko'rsatadi. Ularda tabiatga nisbatan g'amxo'rlik ham ancha xiralashadi. Ayniqsa, shaharda yashab "madaniylashib" ketgan ba'zi odamlar bahorda keng dalalarga, tabiat qo'yniga chiqqanlarida ekologik me'yorlarga, ahloqiy ta'qiqlarga amal qilmay, daraxt va butalarni sindiradi, o'tlarni payhon qiladi, gullarni yulib tashlaydi, daraxtlar tanasi, tog'u-toshlarga, er yuziga o'z nomini yoki boshqa so'zlarni o'yib yozadi. Ammo, bunda ular nafaqat tabiatga, balki boshqalarga ham, eng muhimi o'ziga ham ma'naviy zarar yetkazayotganliklari hususida o'ylab ko'rmaydilar. Bu ularning tabiatdan, rahm-shafqat va g'amxo'rlik tuyg'usidan bir oz bo'lsa-da, uzoqlashib qolganidan dalolat beradi. Bolaraga televizorda beriladigan ekologik tarbiya saboqlariga e'tibor berishni tavsiya etish foydadan holi emas.

Yosh bolaning tabiat bilan muloqati unda ahloqiy sifatlarni tarbiyalaydi. Bizda juda katta tarbiya tizimi yaratilgan. Unda o'smirlarning tabiat bilan muloqatiga, uning qonunlarini, qadriyat va go'zalligini bilishga alohida o'rin ajratilgan. Tabiat - ezgulik manbai, uning go'zalligi insonning ma'naviy olamiga ta'sir ko'rsatadi. Ammo odam qalbi ham eng oliy insoniy go'zalliklar-ezgulik, haqiqat, mehr – muruvvat, hamdardlik, yovuzlikka murosasizlik va boshqa fazilatlar bilan bezalgan bo'lishi kerak.

Biz tabiat sirlarini chuqurroq bilagnimiz va ekologik bilimlarimizni kengaytirganimiz sari barcha tirik mavjudotga qiziqish-e'tiborimiz ortadi. Tabiatning tabiiy go'zal shakllari va turlari haqida tasavvurlarimiz yanada boyiydi. Axir, tabiat va uning turli jonzoatlari o'z-o'zini yaratadi, qayta tiklaydi, kamol toptiradi. Faqat inson ana shu jarayonlarda ularga halaqit bermasligi va ziyon-zahmat yetkazmasliklari zarur. Yoshlarning dunyoqarashi va ekologik madaniyati bir – biri bilan uzviy bog'liqdir. O'quvchilarning tabiatga bo'lgan munosabati ularning ahloqiy yetukligi va qay darajada tarbiyalanaganlik darajasini ko'rsatadi.

Ekologik ong va ekologik bilimlar yoshlar dunyoqarashining tarkibiy qismi bo'lmog'i zarur. Yoshlar o'zlarining hayoti va faoliyati biosferaning hozirgi va kelajakdagi holati bilan uzviy bog'liqligini, tabiatni muhofaza qilish esa zarurat ekanini, tabiiy boyliklardan oqilona foydalanish va har bir shaxs o'zida atrof-muhitning holati uchun shaxsiy mas'uliyat hisini tarbiyalashi lozimligini anglab yetishi shart. Zamonaviy ekologik tarbiyani turli yo'nalishlarda olib borgan ma'quldir. Chunki, har qanday tarbiyani, ayniqsa, ekologik tarbiyani biror andozaga solish yaramaydi.

Ekologik tarbiya- bu tabiatga mavhum muhabbat uyg'otish vositasi emas, u insonning unga bo'lgan oqilona munosabatini shakllantirish, mehr-muhabbatini barqarorlashtirish usuli. Shuning uchun ham u kishilarga bo'lgan hurmat va e'tibor, ishonch, ular mehnati va hayotini e'zozlash orqali uzoq murakkab yo'lni bosib o'tadi. Biroq ekologik tarbiyani sira ham ishontirish va ko'ndirish, tabiatni sevishga chaqiruvchi quruq da'vatnoma tarzida tushunmaslik kerak, u ayni vaqtda, ma'lum darajada ta'qiq va qattiq jazo hamdir.

Ammo kishida botiniy e'tiqod bo'lmasa, bunday ta'qiq ham samara bermaydi, muammolar ham o'zicha hal bo'lmaydi. Biz "yashil o'tlarni toptamang, chamanzorlarni xarob qilmang", deya balandparvoz shiorlar osib qo'yishimiz mumkin, lekin sanoat korxonalarini mo'risidan tutunlardan ifloslanayotgan osmonga, havo qatlamiga, zaharlanayotgan ko'l va daryolarga nima deb yoza olamiz. Xar qalay tabiatni sevish, e'zozlash va uni chin yurakdan muhofazalash omili-bizning vatanparvarlik va fuqorolik burchimiz, deb bilmog'imiz shart. Bu esa ekologik tarbiya orqali yuzaga chiqadi. Ekologik ta'lim tarbiyaga e'tibor bermaslik-kelajak avlodlarimiz hayotiga befarqlikdan boshqa narsa emas. Har bir inson tabiat go'zalligini ko'ra bilsin, uning sahiyligini unutmasin, tabiatdan hayratlanib, ajablanib, zavqlanib yashasin. Demak, u go'zallik yaratsin! Tabiat go'zalligi- uning mo'jizasi, sir-sinoati, abadiyligi, cheksizligi. Inson ona tabiatni o'z jismi, deb anglamog'i uchun irodasi imkoniyatlarini namoyon etmog'i zarur. Imkoniyat insonning go'zal va fusunkor tabiat bilan uyg'un yashashida o'z samalarini beradi, deb umid qilamiz. Ekoturizm va uni talaba va o'quvchi-yoshlarning

ekologik savodxonligini va ekologik madaniyatini shakllantirish masalalari, ya'ni ekologik tarbiya pedagogika fanining mutaxassislashtirilgan bir bo'limi bo'lib, u tarbiyaning boshqa turlari bilan chambarchas bog'langan. Avvalo ekologik tarbiya va ular bilan bog'liq bo'lgan tadbirlarning tarixiga oid ma'lumotlarga murojaat qilsak. Zamonaviy ekologik tarbiya- tabiatni muhofaza qilish, atrof - muhitni toza saqlash ishlarining zahirida o'tgan asrning 30 yillaridan, ulug' olim V.I.Vernadskiyning "Noosfera va odam" degan asarida ilgari surilgan g'oyalar asosida rivojlanib kelgan. O'lkamizda tabiatni asrash, atrof-muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish masalalari eng qadimgi davrlarga borib taqaladi. Bunga misollar keltirib o'tirish shart emas. Ekoturizm kontseptsiyasi e'lon qilinganiga hali ko'p vaqt bo'lgani yo'q. U o'tgan asrning 80-yillarida vujudga kelgan bo'lsada, bugungi kunda u jahon xalqlarining atrof muhitni muhofaza qilish, tabiiy muvozanatni saqlash ishlari bo'yicha ulkan natijalarga erishdi. Respublikamizda ekologik tarbiya ishlarining yagona va ilmiy asoslangan tizimi ishlab chiqilgan. Ekologik tarbiya ishlari uzliksiz ta'lim tizimining barcha bo'g'inlarida o'z aksini topgan, Ular bo'yicha fanlar, qisqa kurslar o'quv -tarbiya jarayoniga kiritilgan. Hozirda "Eko olam" jurnali, "Eko hayot" gazetasi talaba yoshlarni ekologik tarbiyalashda katta targ'ibot va tashviqot ishlarini olib bormoqda. Bulardan tashqari xalqaro huquqiy tajribalar, zamonaviy fan, texnika va texnologiyalar asosida ekologik xavfsizlikning mukammal tizimini shakllantirish O'zbekiston milliy xavfsizligini ta'minlashning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi. Bunda o'sib kelayotgan yosh avlodni ekologik jihatdan tarbiyalash muhim o'rin tutadi. Ekologik tarbiya ishlarini shartli ravishda ikkiga bo'lish mumkin. Birinchisi, tabiat bilan bog'liq ekologik tarbiya bo'lsa, ikkinchisi -jamiyat bilan bog'liq ekologik tarbiyadir. Ekologik tarbiya, albatta ekologik savodxonlik yoki ekologik ta'lim ta'sirida shakllantiriladi. Ekologik tarbiyada bir necha asosiy tushunchalar mavjud: bularga ekologik odat, ekologik xulq, ekologik an'analar, ekologik madaniyat, ekologik ong va nihoyat ekologik tafakkur. Bularni shakllantirish jarayonida ekologik tarbiyalovchi yoki ta'lim beruvchining shaxsi, uning tarbiyalanuvchilarga shaxsiy namuna bo'lishi, ekologik tarbiya samaradorligining eng muhim shartidir.

Bugungi kunda respublikamizda ona tabiatni asrash, tabiiy muvozanatni saqlash umumxalq va umummilliy harakatga aylandi. Undan yosh avlodni vatanparvarlik va ona tabiatga mehr-muhabbat ruhida tarbiyalashda keng foydalanilmoqda. Ekologik sayohatlar yoshlarni jismoniy tarbiyalash, ularni sog'lomlashtirish ishlarining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Respublikamizda jismoniy madaniyat va ommaviy sport-sog'lomlashtirish, shuningdek, ekologik sayohatlar orqali yoshlarni komil inson sifatida rivojlantirishga davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida e'tibor berilmoqda. Prezidentimiz I.A.Karimov Farmonlari, Vazirlar Mahkama-sining soha bo'yicha qabul qilgan qarorlari buning yaqqol dalilidir. Masalan, Ta'lim -1997, Kadrlar tayyorlash -1997, Jismoniy tarbiya va sport -1999, Vazirlar mahkamasining O'zbekistonda turizm sohasi uchun kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi 1999 yil 2 iyulda qabul qilingan 324- sonli qarori, Turizm to'g'risidagi qonun-1999, O'zbekiston ekologik harakatining tashkil qilinishi, bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasini tuzish, 2002 va boshqalar. Oliy va o'rta maxsus ta'lim muasalalarida Jismoniy tarbiya va jismoniy madaniyat, O'zbek tili va adabiyoti, Geografiya, Biologiya, Tabiatshunoslik, Turizm va uni o'qitish uslubiyati fanlari va mutaxassisliklar bo'yicha mashg'ulotlarni o'tkazish alohida o'rin tutadi. Chunki bu fanlar va mutaxassisliklar jarayonida o'rganiladigan ilmiy, nazariy ma'lumotlar va amaliy ko'nikmalar tarkibida, tabiatni muhofaza qilish va tabiiy muvozanatni saqlash bilan bog'liq bo'lgan ekologik va etnografik sayohatlar, dala o'quv amaliyotlari mavjud bo'lib, ular bevosita tog'li tumanlaridagi xilma-xil, takrorlanmas tabiat manzaralariga ega bo'lgan qishloqlarida o'tkaziladi va ular bo'lajak yosh mutaxassis-o'qituvchilarni professional shakllanishida, ularni har har tomonlama, jumladan ona tabiatga mehr-muhabbat ruhida tarbiyalanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Ekoturistik sayohatlar jismoniy madaniyat va faol dam olishning o'ziga xos vositalaridan biri bo'lib, u yoshlarni mehnatsevar va vatanparvar, rost-go'ylik, sadoqat, o'zaro ishonch, tabiatga mehr-muhabbat ruhida tarbiyalash bilan bir qatorda, yoshlarni Vatan va uning takrorlanmas tabiatini sevish, uni asrab -avaylash, ko'paytirish hislarini tarbiyalashga ham katta yordam

beradi. Shuningdek, ekologik sayohatlar jarayonida o'quvchilarda mardlik, jasurlik, chidam-lilik, kuchlilik, keskin vaziyatlarda zarur qarorga kelish kabi ruhiy va jis-moniy sifatlar ham shakllanib boradi. Respublikamizda hali yaxshi o'rganilmagan, inson oyog'i yetmagan joylar juda ko'p. Ekologik sayohatlar va ularni tashkil qilish, o'tkazish bo'yicha respublikamizda katta tajriba to'plangan. Bugungi kunda bu tajribalarni yanada rivojlantirish, uni zamonaviy darajaga ko'tarish, ulardan yosh avlodni tarbiyalash yo'lida foydalanish bilan bog'liq ulkan vazifalar, imkoniyatlar mavjud. Vazifalarni hal qilish va imkoniyatlardan foydalanish maqsadida Respublika "Talaba" sport uyushmasi "Ekoturizmni rivojlantirish, aholi ekologik savodxonligi va madaniyatini oshirish, tabiatdagi bio xilma-xillikni saqlab qolish va undan foydalanish" mavzusidagi grant loyihasi bo'yicha talaba-yoshlar o'rtasida ekologik turizmni rivojlantirish yuzasidan keng ko'lamda targ'ibot va tashviqot ishlarini olib bormoqda. Hozirda tabiatni muhofaza qilish, tabiiy muvozanatni saqlash ishlari-ni yaxshilash va ular orqali o'sib kelayotgan yosh avlodni barkamol qilib tarbiyalashda foydalanish eng dolzarb masalalardan biridir. Bunda oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalarning imkoniyatlari juda katta. Birinchidan, ularda mutaxassislar tayyorlash o'quv rejasida bevosita ekologiya va tabiatni muhofaza qilish bilan bog'liq fanlarning mavjudligi bo'lsa, ikkinchidan shu ta'lim muassasasida ta'lim olayotgan o'quvchi va talaba yoshlar bilan ekologik tarbiyani amalga oshirish bilan bog'liq ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarning ko'pligidir. Ammo bu imkoniyatlardan zarur darajada foydalanilmaslik holatlari kuzatilmoqda. Respublikamizning qator hududlari hisoblanmish Zomin, Baxmal, Forish, G'allaorol, Nurota, Qo'shrabot, Nurobod, Urgut, Kitob, Bo'stonliq, Parkent tumanlari hamda Farg'ona vodiysining tog'li tumanlarida, Jizzax va Buxoro viloyatlarining tumanlarini tabiati, o'simlik va hayvonot dunyosi o'ziga xos hamda juda xilma-xildir. Bundan tashqari bu tumanlarda tabiatni takrorlanmas mo'jizalariga boy sayohatbop joylari ham juda ko'p. Lekin hozirda ulardan zarur darajada foydalanish, ulardagi o'simlik va hayvonot dunyosini o'rganish va saqlash, ko'paytirish, sayohatbop joylar orqali o'sib kelayotgan yosh avlodda tabiatga mehr-muhabbat o'yg'otish, ekologik

tarbiyani amalga oshirish talab darajasida emas. Bu, hududda yashovchi aholining, ayniqsa o'quvchi-yoshlarning ekomadaniyat bo'yicha bilim, malaka va ko'nikmalarini to'la shakllanmasligiga sabab bo'lmoqda. Respublikada N.To'xliiev va boshqa olimlarning ekoturizm bo'yicha asarlari ko'p. Ammo bu asarlar rus tilida bo'lganligi uchun ommaviy foydalanish darajasi past. Yuqorida ko'rsatilgan hududlardagi o'simlik va hayvonot dunyosini, sayohatbop joylarini ilmiy-amaliy o'rganish uchun o'quv rejasida dala amaliyoti bo'lgan ekologiya, geografiya, biologiya, turizm mutaxassisliklarida ta'lim oluvchi talabalar kuchidan foydalanish, ularni ekomaqsadlariga jalb etishda katta resurslar mavjud. Lekin ulardan zarur darajada foydalanilmayapti. Bu holat quyidagi vazifalarni hal qilishni talab etadi:

- Respublika oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalarida ekoturizmni rivojlantirish.
- Talaba-yoshlarni ekologik savodxonligi va madaniyatini oshirish.
- Respublikamizda tabiatdagi bio xilma-xillikni saqlab qolish va undan foydalanish yo'llarini ishlab chiqishga iqtidorli talaba-yoshlarni jalb etish va Vazifalarning mazmunidan ma'lumki, ular talaba-yoshlarning ekologik savodxonligini oshirish orqali sog'lom turmush tarzini kechirishini ta'minlashga qaratilgan tadbirlardir. SHuning uchun talaba-yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini kechirishning yosh xususiyatlarini hisobga olib, sog'lom turmush tarzining ijtimoiy me'yor va mezonlarini ishlab chiqish zarur.

Talaba-yoshlar o'rtasida ekosayohatlar orqali sog'lom turmush tarzini kechirishning turli xil yosh, kasb va boshqa qiziqishlarining jiddiy davrlari mavjud bo'lib, bu davrlardan o'z vaqtida samarali foydalanilish lozim.

I -bob bo'yicha xulosa

Ekologik turizm muammolarini ilmiy jihatdan yechishga qaratilgan bo'lib, bunda asosan Namangan viloyati hududi va Respublikamiz miqyosida tarqalgan ekoturlarning tasniflanishi, ekoturistik kontseptsiyalar, geografik komplekslarning ekoturistik imkoniyatlari, ekoturistik rayonlarni ajratish va ularda marshrutlar tashkil etishga va shular asosida turistlar oqimini Namangan viloyatida rivojlantirishga qaratilgan. Mazkur ekoturizm oid masalalarning yechimi jarayonida quyidagi bir-biri bilan bog'liq bo'lgan ilmiy natijalarga erishildi.

Ekologik turizm yoki ekoturizm dunyo miqyosida tez sur'atlarda rivojlanib kelayotgan turizm tarmoqlaridan biridir. U jamiyatdagi iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, ma'naviy va ma'rifiy amalarini bajarishi bilan bir qatorda ekologik muammolarning yechimini topishda ham xizmat qilmoqda. Lekin uning ilmiy asoslari Namangan viloyati sharoitida hali to'liq ishlab chiqilmagan. Shuning uchun ekoturizm viloyatda alohida ilmiy yo'nalish va amaliyot tarmog'i sifatida ko'rib chiqildi. Ekoturizm-insonlarning atrof tabiatga qiladigan ekologik sayohatlari bo'lib, shaxslarning doimiy yashash joylaridan dam olish, sport bilan shug'ullanish, salomatligini tiklash, ma'rifiy-ma'naviy (umumtarbiyaviy) ishlarni amalga oshirish ekologik vazifalarni bajarish kabi maqsadda ekoturistik ob'ektlarga qiladigan sayohatlari.

Ekoturizm mintaqaviy xususiyat kasb etgani uchun ham uni regional rayonlashtirish printsiplari asosida amalga oshirgan maqsadga muvofiqdir. Regional rayonlashtirishda: geokomplekslarning o'ziga xos ekoturistik

imkoniyatlari; ekoturistik ob'ekt chegarasining tabiiyligi; turlarni ekologik mohiyat kasb etishi; iqtisodiy samaradorlik va turistik jozibadorlik uchun ekoturlarni boshqa turizm shakllari bilan qo'shib olib borish imkoniyatlari; ekoturistlarni milliy g'oya va birdamlik ruhida tarbiyalash kabi ko'rsatgichlar rayonlashtirishning ilmiy asosi bo'lib xizmat qildi.

II - BOB. NAMANGAN VILOYATIDAGI EKOTURISTIK OB'EKTLARDAGI YO'NALISHLARIGA UMUMIY TAVSIF

2.1. Namangan viloyating ekoturistik rayonlari

O'zbekiston hududini ekoturistik va agroturistik rayonlarga ajratish va ularni nomlash bilan ilk bor A.Nigmatov, N.Shamuratova (2006, 2007), A.Nigmatov, Sh.Yakubjanovalar (2009) shug'ullanishgan va mamlakatimiz hududini 14 ta ekoturistik va 15 ta agroturistik rayonlarga ajratganlar. Har ikkala holatda ham Farg'ona vodiysi alohida bir o'ziga xos ekoturistik va agroturistik rayon sifatida olingan. Ekoturistik rayonlashtirishni ular 1:1000000 masshtabdagi mavzuli kartalarda aks ettirishgan.

Rayonlashtirish muayyan hududni ma'lum bir maqsadda, uning tegishli ko'rsatkichlariga binoan o'ziga xos "joy" yoki "hudud"larga yoiniki taksonomik birliklarga ajratish va nomlash. *Ekoturistik rayon esa ekotizimlarni turistik ko'rsatkichlariga qarab hududiy qismlashtirish va ularni nomlashdir.*

Ekoturistik rayonlarga ajratish ob'ekti qilib ilk bor geotizim emas, balki ajratilgan ekotizimlarni oldik va ularni quyidagi ekologik printsiplarga mos ravishda muayyan bir rayonlarga birlashtirdik: hududiy birbutunlik tamoyili; ekotizimlarning antropogen, tabiiy va tabiiy-antropogen o'zgaruvchanligi; ekoturizmni boshqa turizm turlari bilan birgalikda olib borish samaradorligi; madaniylashtirilgan ekotizimlarda agroturistik imkoniyatlarning yuqoriligi; ekoturizmni ekotizimlarni o'ziga xos muhofaza qilish, ularning turistik resurslaridan oqilona foydalanish, buzilgan ekotizimlarni qayta tiklashga yo'naltirilganlik qoidalariga amal qilindi.

Namangan viloyati ekoturistik rayonlarni nomlashda ajratilgan qismlarning tabiiy geografik va ijtimoiy-iqtisodiy holati hamda ularning nomlanishi asos qilib olindi. Ekoturistik rayonlarga xarakteristika berishda esa ekotizimlardagi turistik ob'ektlarning turistik imkoniyatlari bosh mezon sifatida olindi. Chunki, ushbu baholash mezonlari rayonlar doirasida o'ziga xos turistik marshrutlarni o'tkazishda qo'l keldi. Har bir ekoturistik rayon tarkibidagi ekotizimlar saqlanib qolindi.

Yuqorida keltirib o'tilgan ekoturistik rayonlarga ajratishning maqsadi, predmeti, metodlari, printsiplari va toponimikasi viloyat hududini quyidagi 4 ta rayonlarga ajratishga imkon berdi:

- ***Qurama – Chotqol tog'li ekoturistik rayon.*** Uning tarkibiga – baland, o'rtacha balandlikdagi va past tog' ekotizimlari (1–6) kiritildi.

- ***Chodak–Chust–Kosonsoy–Yangiqo'rg'on tog' oldi ekoturistik rayon.*** Uning tarkibiga tog' oldi tekislik, adir, adirlararo tekislik (7–11) ekotizimlar kiritildi.

- ***Sirdaryo o'ng sohilidagi tekislik ekoturistik rayon.*** Uning tarkibiga Sirdaryooldi o'zlashtirilgan o'ng sohilidagi tekislik (12) ekotizimi kiritildi.

- ***Sirdaryo chap sohilidagi tekislik ekoturistik rayon.*** Uning tarkibiga Sirdaryoorti o'zlashtirilgan va o'zlashtirilmagan o'ng sohilidagi tekislik (12,13) va Sirdaryo daryosi (14) ekotizimlari kiritildi.

1.Chotqol - Qurama tog' ekoturistik rayon. Bu rayon baland tog' xushmanzaraligi ekoturizmni rivojlanganishiga qulay imkoniyatlar yaratadi. Rayonda ekoturistik ob'ektlarini tarkib topishida rel'f asosiy omillardan biri hisoblanadi. Ekoturistik rayonda mavjud tog'larda doimiy qor va muzliklar, daryo va soy vodiylari, tabiat yodgorliklari, karst yaratmalari ya'ni g'orlar, chuqur daralar o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Ayniqsa, Arashon tog' tizmasidagi turli shakl va hajmda bo'lgan 10 dan ortiq muzliklarda alpinizm, qoyalarga chiqish, muzlik va qorlarga sayyohat qilish, tog' yon bag'irlarida chang'ida uchish kabi turizmning ekstremal, tog' va sprot turlarini yanada rivojlantirish uchun imkoniyatlariga egaligi bilan xarakterlanadi. Baland tog' cho'qqilarida qish o'ta sovuq va uzoq davom etgani uchun ham muzloqi va qorli hududlar o'ziga xos

manzara va jozibadorlikni vujudga keltirgan. Baland tog' mintaqasida ekoturizmning tabiat qo'ynida faol usullar bilan bog'liq bo'lgan sarguzasht turlarini, alpinizm, qoyalarga chiqish, speleoturizm, paraplanerizm, kanyonning, tog' chang'i kabi turlarini uyushtirish imkoniyatlari mavjud. Ayniqsa Chotqol va Qurama tog' cho'qqilari tabiatining diqqatga sazovor joylari ekoturizmini rivojlantirishda qo'l keladi. Yozgi iqlimiy sharoit tekisliklariga nisbatan 10-12 daraja pastroq yuradi Masalan iyun oyining o'rtacha harorati $+20 +22 S^0$, janubiy qismida $+25+28 S^0$ tashkil etadi. Yog'in miqdori o'rtacha 600-800 mm bo'lib, u asosan qor holatida yog'adi. Ekoturistik rayonning markaziy va janubiy qismida nisbatan kamroq 300-350 mm bo'lib, u yomg'ir holatida yog'adi.

Ohangaron daryosi va uning o'ndan ortiq sersuv irmoqlari gidrologik rejimi V.L.Shults, R.Mashrapov (1969) tomonidan o'rganilgan. Ohangaron daryosi Qurama va Chotqol tog' tizmalari yon bag'irlaridan oqib tushadigan bir qancha soy va jilg'alarining birlashuvidan hosil bo'ladi. Daryo past tog'lardagi qor-yomg'ir suvlaridan to'yinadi. Shu sababli uning suvi aprel-may oylarida ko'payadi va yillik oqimning 75,4 %, iyul-sentyabr oylarida 12,9 foiz, oktyabr-fevral oylarida esa 11,7 foizni tashkil etadi. Ohangaron daryosining ko'p yillik o'rtacha suv sarfi Turk qishlog'i yonida $22,8 m^3/sek$, barcha irmoqlari bilan esa $43m^3/sek$ ni tashkil etadi. Ohangaron daryosining juda ko'p irmoqlari bor, lekin ular kichkina-kichkina jilg'a va soylardir. Bu irmoqlardan eng kattalari Arashon, Yertoshsoy, Toshsoy, Dukentsoy, Qorabag'irsoy, Oqchasoy, Shovvasoy, Niyozboshsoy va Gushsoylardir. Daryoning toshqin suvlarini to'plash maqsadida suv sig'imi 80 mln. m^3 bo'lgan Ohangaron (Turk) suv ombori 1974 yilda ishga tushirildi. Hududdagi suv omborlari geografik jihatdan qulay joylashganligi sababli, yoz oylarida shaharliklarning sevimli oromgohiga aylanishi mumkin. Suv omborining atrofida oromgohlar tashkil qilish va ekoturizmni rivojlantirishda tabiat ekzotikalarining mavjudligi bilan xarakterlanadi. Ayniqsa, suv sportini rivojlantirish uchun katta imkoniyatlarini hisobga olgan holda uning turlari-qayiq, baliq ovlash va cho'milish uchun lozim bo'lgan xizmat turlarini kiritish darkor.

Ohangaron havzasining orografik tuzilishi, tizmalarining past-balandligi, iqlim va gidrologik xususiyatlari bu yerda tuproq va o'simlik qoplaminig, hayvonotining va umuman landshaftlarining o'ziga xos balandlik bo'ylab mintaqalanishiga olib kelgan. Bu esa differentsiyalashgan o'simlik va hayvonot dunyosini tarqalishiga sababchi bo'lgan. Rayonning tabiiy va ekoturistik resurslari ekoturizmning turli yo'nalishlarida (tog' turizmi, alpinizm, speleoturizm, rafting, trekking, piyoda, ov sport-ishqibozlik) foydalanish mumkin.

2.Chodak-Chust-Kosonsoy-Yangiqo'rg'on tog' oldi ekoturistik rayon.

Viloyatning Pop tumani janubiy va shimoliy, Chust, Kosonsoy, Chortoq va Uychi tumanlarining 600 -1500 m.a.b. qamrab olgan bu rayonning tabiiy sharoiti tog', tog' oldi, adir va adir orti tekislik ekotizimlaridan iborat. Hududning kattaligi uchun ham shimoldan janubga tomon iqlimi farqlanadi. Qish shimolda oktyabr oxiridan boshlanib mart oyigacha davom etadi. Yanvar oyining o'rtacha harorati -10 -12 S⁰, iyul oyining harorati +26 +28 S⁰. Yillik yog'in miqdori 400-500 mm bo'lib u qor holatida yog'adi. Qorning qalinligi 30-40 sm bo'lib, u mart oyigacha saqlanadi. Hududning janubida yanvar oy harorati -6 -8 S⁰, iyul oyida esa +30+35 S⁰, yog'in miqdori esa 200-250 mm atrofida yomg'ir holatida yog'adi .

Rayon hududidan oqib o'tuvchi Chodaksoy, Rezaksoy, G'ovasoy, Olmossoy, Kosonsoy, Podshootasoy,Chortoqsoy, 12 ta suv ombori, selxonalar, ko'plab buloqlar ekoturistik ob'ekt bo'la oladi. Ekoturizmni rivojlantirish rayonning shimoliy qismidagi dorivor o'simliklardan – kiyik o'ti, kaklik o'ti, dala choy, zira, erimurz, talxa, rayxon, xina, qalampir, do'lana, namatak; sut emizuvchilardan – olmaxon, tulki, bo'ri; sudralib yuruvchilardan – tog' iloni, botmonchi, kaltakesak; qushlardan – tog' kakligi, bedana, bulbul, qarg'a, olaqanot, qizilishton kabilarni uchrashidadir.

Pop tumanidagi Chodak, Chust hududini G'ova, Olmos, Varzik, Yangiqo'rg'on tumanining Podshoota, Chortoq va Uychi tumanlaridan oqib o'tuvchi Chortoqsoy havzalarida soylarni shifobaxsh va erigan kislorodga boy zilol suvlari va toza havosi, soy atroflaridagi go'zal va jozibador o'rmonlar, o'tloqlar, buloqlar, tog' manzaralari Chodak, Oltinkon, Pardatursun, G'ova,

Kosonsoy, Ko'ksaroy, Chortoq va Gulshan kabi mashxur dam olish maskanlari, oromgohlar singari hududlar ekoturistik ob'ektlardir. Iqlimi rayonning shimolida tog'li, janubida keskin kontinental. Bunday iqlimiy sharoit hududda 8 ta turistik ahamiyatga ega soylarni, soy vodiylaridagi 50 ga yaqin bannalagik xususiyatli shifobaxsh buloqlarni, 12ta suv ombori va ular atrofidagi to'qayzor va o'rmonlarni, Chust, Kosonsoy, Yangiqo'rg'on, Uychi va Chortoq tumanlaridagi madaniyat va istirohat bog'larni, arxeologik yodgorliklar, muzeylar, masjidlar, madaniyat uylarni ekoturistik ob'ekt sifatida qo'llash imkoniyatini beradi.

3. Sirdaryo o'ng sohilidagi tekislik ekoturistik rayon.

Sirdaryoning o'ng sohili deb nom olgan bu ekoturistik rayonga ma'muriy birliklar sifatida Pop, Chust, To'raqo'rg'on, Namangan, Chortoq, Uychi tumanlarining o'rtacha 400–550 m.a.b. va ular orasidagi bir qator soylar hosil qilgan vodiylar va allyuvial tekisliklarni o'z ichiga qamrab oladi.

Geologik va geomorfologik tuzilishiga ko'ra Sirdaryo, Mirzacho'l komplekslariga oid allyuvial, prolyuvial, eol yotqiziqlardan iborat, mezakaynazoy tog' burmalanish va to'rtlamchi davr polistatsen orogeneziga ta'luqli. Hududning relfi o'rtacha ko'rsatkichlarga ega bo'lgan Pop, Rezak, To'raqo'rg'on, Namangan, Chortoq va Uychi adirlari hamda o'rtacha 400 m. a.b. ega bo'lgan rayondan oqib o'tuvchi G'ovasoy, Kosonsoy, Chortoqsoy, Namangansoy, Podshootasoylarining quyi qismi konussimon yoyilmalarida hamda Sirdaryoni o'ng sohili trassasidagi tekisliklardan iborat.

Mazkur ekoturistik rayon hududidan oqib o'tuvchi Shimoliy Farg'ona (1940) va Katta Namangan kanallari (1987) hamda Sirdaryoga quyuvchi Chodaksoy, Rezaksoy va G'ovasoy, Kosonsoy, Chortoqsoy, Namangansoy, Podshootasoy hamda Jiyda, To'raqo'rg'on, Irvadon, Olmos suv omborlari, selxonalar, bu soylar va kanallardan suv oluvchi 50 dan ortiq nasos suv inshootlari rayonni 50 000 ga ortiq yerlarni suv bilan ta'minlaydi. Hududdagi sug'oriladigan va sug'orilmaydigan avtomorf och tusli bo'z tuproqlar, soylar, suv omborlari, kanallar atroflarida sug'oriladigan gidromorf rejimni tuproqlari tarqalgan. Hudud paxta maydonlari donli ekinlar mevali bog'lar, manzarali daraxtlar, poliz va sabzovot

ekinlariga ixtisoslashgan bo'lib, bu agroturizm ob'ektlariga kiradi. Aholi vakillari qadimdan o'troq hayot kechirib, ular asosan dexqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik, ovchilik bilan shug'ullanishgan. Farg'ona vodiysining qadimiy poytaxti bo'lgan Axsikent qal'asi va uning atrofidagi shaxarlarda aholi vakillari istiqomat qilgan. Hozirgi kungacha tarixiy arxeologik yodgorliklar Axsikent xarobalarida saqlanib qolgan bo'lib, mazkur rayon tarkibiga kirishi bilan xarakterlanadi. Rayonda turizmning rekratsion va nozoturistik turlarini rivojlantirish uchun Shaxant sihatgoxidagi suv o'ziga xos axamiyatga ega. Minerallarga boy bo'lgan tarkibida oltingugurt, vodorod, yod, brom kabi kimyoviy elementlarga ega bo'lgan suv viloyatdagi Chortoq, Gulshan, Uchqo'rg'on dam olish maskanlaridagi suvlardan shifobaxshligi bilan ajralib turadi. Namangan viloyatidagi boy arxeologik-tarixiy obidalardan – Axsikent, Munchoqtepa, Mug', Elatan, Buonamozor va boshqa diqqatga sazovor joylar, sayr-sayohat, dam olish va davolanish maskanlari, Chortoq tumanidagi "Chortoq", To'raqo'rg'on tumanidagi "Shahand" va boshqa ko'plab salomatlikni tiklash xo'jaliklari turizmni rivojlantirish imkoniyatlarini yanada ommlashtirishga imkon yaratadi.

4.Sirdaryo chap sohili ekoturistik rayoni. Bu rayonga Sirdaryo va uni chap sohilidagi dengiz sathidan 300-350 m balandlikka ega bo'lgan daryoning 2-3-terassalaridagi Mingbuloq va Pop tuman hududlari kiradi. Rayon Sirdaryo suvi olib kelgan allyuvial yotqiziqlar, Jomasho'yda 5-6, Markaziy Farg'onada 10-15 m chuqurlikdagi qoldiq tuproqlar va ularning ustini qoplagan eol qum, qumoq va lyosslardan iborat. Uning relfi monolit ko'rinishdagi tekisliklardan iborat. Iqlimi cho'l mintaqasi bo'lgani uchun yozi o'ta issiq va quruq bo'lib, harorat o'rtacha $+30+35S^0$, qishki harorat $-6 -8 S^0$ bo'lib, namlanishiga nisbatan bug'lanish koeffitsenti yuqori. Yog'in miqdori bor yo'g'i 160-180 mm tashkil etgani uchun ham cho'l mintaqasiga xos landshaftlar tarqalgan. Yer osti suv sathi yer yuzasiga yaqin joylashganligi uchun ham Sirdaryoda suv ko'paysa (may – iyul) yer osti suvlari sathi 1,5 metrgacha ko'tariladi.

Sirdaryo bo'ylarida va daryo havzasida hosil bo'lgan orollarda ekoturizmni qayiqlarda va paromlarda sayir qilish, may-iyun oylarida xilma-xil ranglar jilosida

gullagan jozibador yulg'unzorlarga sayohatlar uyutirish mumkin. O'zlashtirilmagan Markaziy Farg'ona qum barxanlaridan iborat bo'lgan ekoturistik ob'ektlarda esa aholini xalq tabobati bo'yicha qumdan shifo topish maskani (20 avgustdan 20 sentyabrgacha bo'lgan qisqa vaqt oralig'ida) sifatida foydalaniladi. Bot, bo'g'im va tayanch xarakat a'zolari kasalliklaridan shifo topishda va oldini olishda foydalaniladi. Hududda tarkibida oltigugurt va ftor bo'lgan yer qaridan chiqayotgan mineral suv ko'p kasalliklarga qarshi kurashda va olidini olishda qo'llaniladi. Markaziy Farg'onadagi 30 000 ga maydondagi "Markaziy Farg'ona tabiiy qum landshafti", Pop tumanidagi Sirdaryo hosil qilgan Mirzaorol davlat qo'riqxonasi nozoturizm va agroturizm ob'ektlari bo'lib hisoblanadi. Hududdagi Dovduq mahalla fuqoralar yig'inida neft mahsulotini qazib olish ishlari natijasida mazkur rayonda yangi shaharcha va ularda istiqomat qiladigan aholi vakillariga zamonaviy turar joylar, servis xizmatlari, dam olish maskanlari hamda madaniyat va istirohat bog'lari tashkil etilib, turizmni rekratsion va tibbiy turlarini istiqbolda tashkil etish va rivojlantirish mumkin.

2.2. Ekoturistik rayonlardagi turistik yo'nalishlar va ularning o'ziga xos hususiyatlari

"Ekologik turistik marshrut" yoki "ekoturistik marshrut" to'rt atamalar yig'indisidan: "oikos" (makon) +"logos" (ta'limot) +"route" (yurish)+"marche" (harakatlanish yo'li) olingan. Keng ma'noda *ekoturistik marshrut* – muayyan maqsad yoki maqsadlarni ko'zlagan holda shaxsning ekotizimlarga avvaldan belgilangan harakatlanish yo'li bo'yicha uyushtirilgan sayyohati. Tor ma'noda *ekoturistik marshrut* – sayyohlarning ekotizimlardagi harakatlanish yo'li. Keng ma'nodagi tushunchadan kelib chiqqan tarzda ekoturistik marshrutlar :

- sayohatchi o'z oldiga aniq bir maqsad (masalan, ekoturizm bilan shug'ullanish) yoki maqsadlarni (ekoturizm bilan bir qatorda tarixiy yoki diniy turizmni yo'lga qo'yish) qo'yadi;
- turistik guruh (yuridik shaxs) yoki yakka tartibdagi turist (jismoniy shaxs) uchun mo'ljallanadi;

- ekotizimlar doirasida tabiiy yoki antropogen o'zgargan ekoturistik ob'ektlar aniqlanadi;
- ob'ektlar bo'yicha ma'lumotlar to'planadi va gidlar tayyorlanadi;
- mutaxassislar tomonidan maxsus ishlab chiqilgan harakatlanish yo'lishlari belgilanadi.

Ekoturistik marshrutlarni tashkil etish va olib borishda V.S.Volkov, K.E.Shapakinalar (1985) sayyohlarning imkoniyatlariga qarab ularni: bir to'g'ri chiziqli, radial, aylanma turlarga ajratishni ma'qul ko'radi. N.Tuxliev va T.Abdullaevlar (2006) har qanday turistik marshrutlar geografik nuqtalar bo'yicha avvaldan belgilangan muayyan bir tartibda tavsiflangan turistik ekskursiya yoki sayohat yo'llaridir, deb bilishadi. Lekin ekoturistik ob'ektlarning barchasini geografik nuqta deb qaralmaydi, ya'ni unda geografik joylashuv koordinatalari berilmaydi.

S.R.Erdavletov turistik marshrutlar avvaldan belgilangan grafik karta yoki chizmalarda ko'rsatilgan yo'llar bo'yicha olib borishni maqsadga muvofiq deb biladi. Buni inkor etib bo'lmaydi, chunki avvaldan grafiklari tuzilgan va yo'llari aniqlangan ekoturistik marshrutlarning samarasi yuqori.

A.N.Nigmatov ekoturistik marshrutlarni rejalashtirish va ularni amalga oshirishda xavfsizlik masallarini xal etish, sayyohlarning hayot faoliyati xavfsizligini nuqtai nazradan minimal tavakkalchilikni ta'minlovchi choratadbirlar rejasini ishlab chiqishni maqsadga muvofiq deb biladi. Muallif har bir ekoturistik ob'ektning xavfsizlik holatini 4 darjada (xavfsiz, xavfli, o'ta xavfli, fojiali) baholash, ularga ta'sir etuvchi omillarni yoki kuchlarni aniqlash (tabiiy, tabiiy-antropogen, antropogen) sayyohlikni olib borishning eng optimal yo'llarini ishlab chiqishni tavsiya etadi.

Sh.T.Yakubjanova (2011) turistik marshrutlarni ishlab chiqish aksariyat hollarda besh bosqichda amalga oshirishni ma'qul deb biladi: reganktsirovka ishlarini amalga oshirish (joy yoki hududning sayyohlik imkoniyatini tadqiq qilish, turistik ob'ektlarni aniqlash va tasniflash; marshrutlar loyihasini ishlab chiqish va uni plan yoki kartaga tushirish; har bir marshrut qabul qiluvchi, gid va turistlar

uchun “eslatma”, buklet va reklamalar loyahasini yaratish; yaratilgan loyihalarni tegishli ekspertizadan o'tkazish; loyihalarga tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish hamda ularni chop etish.

Muallif agroturistik marshrutlarni tasnifiy belgilariga ko'ra quyidagi turlarga ajratadi: sof agroturistik marshrutlar; agro–ekoturistik marshrutlar; agroturizm bilan boshqa turizm turlarini qo'shib olib borishga qaratilgan marshrutlar. Yuqorida qayd etilgan tushuncha, turistik marshrutlarni loyihalash, tashkil etish va olib borish qoidalariga ko'ra Namangan viloyati ekoturistik rayonlarida quyidagi marshrutlarni tashkil etildi (2.2.1-jadval):

2.2.1-jadval

Namangan viloyatidagi ekoturistik rayonlar va istiqbolli marshrutlar

T/r	Ekoturistik rayon	Turistik marshrut	
		Sof ekoturistik	Majmualiy turistik
1.	Qurama - Chotqol tog'	1.Namangan-Pop-Chodak-Qamchiq dovoni-Arashon buva; 2.Pop-Parda Tursun; 3.Pop-Munchoqtepa-Pop; 4.Toshkent-Qamchiq dovoni-Arashon buva;	1.Namangan-Pop-Parda Tursun-Chodak-Qamchiq dovoni- Toshkent;
2.	Chodak-Chust-Kosonsoy-Yangiqo'rg'on tog' oldi	1. Chodak-Chust-G'ova- Chust; 3.Namangan - Kosonsoy - Oromdam olish maskani; 4.Namangan - Chortoq-Mamay-Nanay;	1.Namangan-CHust-Kosonsoy-Mug' tepa-CHortoq-Baliqko'l-Yangiqo'rg'on-Namangan;
3.	Sirdaryo o'ng sohil tekisliklari	1.Namangan-To'raqo'rg'on-Axsikent-Shaxant-Namangan; 2.Namangan shaxri; 3.Namangan-Uychi-Uchqo'rg'on-Namangan;	1.Namangan shaxri-To'raqo'rg'on - Axsikent; 2.Namangan-Uychi-Uchqo'rg'on-Namangan;
4.	Sirdaryo chap sohil tekisliklari	1.Namangan-Sirdaryo-Sho'rsuv-Namangan; 2.Namangan-Markaziy Farg'ona cho'llari -Namangan;	1.Namangan-Sirdaryo havzasi-Mingbuloq-Namangan;

Manba: Namangan viloyatining turizm boshqarmasi ma'lumotlari asosida tayyorlangan.

1.Chotqol-Qurama tog' rayonidagi ekoturistik marshrutlar:

1.1. Namangan - Pop – Chodak- Qamchiq dovoni - Arashon buva. Viloyat istiqbolidagi mazkur marshrutga tashrif buyurgan turistlar qattiq qoplamali

avtomobil yo'llaridan boshlanib, dastlab Namangan shahri, To'raqo'rg'on va Chust tumanlaridan o'tib, Pop shahridan Chodak dam olish maskanlariga, so'ngra Qamchiq dovoni orqali Arashon buva hududidagi ekoturistik maskangacha borish imkoniyatlariga ega.

Popdan Chodaksoy havzasi orqali Arashon tog' tizmasiga tomon past, o'rtacha va baland tog' mintaqasiga tomon rel'ef ko'tarilib borgan sari tog' havosi, landshafti, tog' qoyalari, tizmalari va ulardagi archazorlar, tog' teragi, do'lanazorlar bilan almashinadi. Atrofdagi o'rmon va butazorlar daryoda chuqur darralari jozibasiz tobora ortib boradi. Dengiz sathidan 4000 m dan baland Arashon ekoturistik ob'ekti tog' havosi, atrofida qoyali va muzli landshaft turistlarni o'ziga jalb etadi. Qamchiq dovonidagi tog' landshafti, fauna va floralari hamda Arashon buva masjidi, buloqlar, oromgoh, oshxona-choyxonalar, bog'lar, gulzorlar va tibbiy shifoxonalar, kichik bozorчалar turistlarni diniy, tarixiy, tibbiy, agro, tog'da chana sporti, alpinizm kabi kompleks ekoturistik ob'ektlar bilan tanishtiradi. Tarixiy turistik maskanlardan Oq mozar, Chodak, G'urumsaroy, Ismoil Atoyi kabi ziyoratgohlarni tomosha qilish va ziyorat qilish imkoniyatiga ega.

1.2. Pop – Parda Tursun marshruti. Pop shahridan 60 km shimolda tog' orasida joylashgan Parda Tursun qishlog'igacha boradi. Popdan chiqqach yo'lning ikki tomoni past baland adirlar, Madaniyat qishlog'idan tog' havosi va manzarasi boshlanadi. Soyni toshdan toshga urilib sharqirab oqishi, yam-yashil butazorlar, mevali bog'lar, dorivor o'simliklar, sayroqi qushlar turistlarni maftun etadi. Parda Tursun qishlog'ida sayyohlar uchun mehmonxonalar, oromgoxlar, tarixiy obidalar, sanatoriya, bog'lar, gulzorlar, ovqatlanish va savdo, maishiy xizmat shaxobchalari, buloqlar ko'pki bular diniy, tarixiy, rekreatsiya, tibbiy, agro kabi kompleks ekoturistik ob'ektlardir.

1.3 Pop — Munchoqtepa – Pop marshruti. Sirdaryo havzasining o'ng sohilida IX-X asrlarning tarixiy yodgorligi sifatida e'tirof etilgan Munchoqtepa qal'asi bo'ylab tashkil etiladigan mazkur marshrutda tarixiy qadamjoning o'ziga xos madaniyati, uy-ro'zg'or buyumlari, sopol va metaldan yasalgan idishlar, xarbiy qurollar, qadimgi qo'lyozmalar, bir necha asr muqaddam qamishdan yasalgan

mayit va uni tobuti, qal'a xonaqalari, saroy xonalari, himoya devorlari, soqchilar turadigan tepaliklar, suv yo'llari, hammom va madrasa-masjidlari kabi tarixiy-arxeologik yodgoliklarga tashrif buyurgan turistlar ekoturizmni tarixiy va diniy turizm turlari bilan yaqindan tanishish imkoniyatini beradi.

2. Chodak -Chust - Kosonsoy -Yangiqo'rg'on tog' oldi marshruti:

2.1. Toshkent - Qamchiq dovoni - Arashon buva marshruti. "XXI-asr mo'jizasi" deb nomlangan Markaziy Osiyoda yagona, uzunligi 121.3 km li Angren-Pop elektrlashtirilgan tez yurar temir yo'l infratuzilmasi, yo'l atrofidagi tog' manzarasi, tog' archazor va butazorlar panoramasi, toza va musaffo tog' xavosi, dengiz sathidan salkam 4000 m balandda joylashgan. "Arashon buva" tarixiy obidalar majmuasi, tog'dagi o'ziga xos bo'lgan fauna va flora turlari gidlar uchun ekoturistik marshrut mavzusi bo'la oladi.

Viloyatga tashrif buyurgan turistlarning aksariyati turli-xil maqsadlarda turistik faoliyatini amalga oshirish davomiyligida albatta o'zining qadimiy milliy hunarmandchiligi bilan mashxur bo'lgan Chust hududiga va tuman markazidagi madaniyat va istirohat bog'iga albatta tashrif buyurishi kuzatilmoqda. Turizmning ichki yoki tashqi sohalarini asosi hisoblangan turistlar dastlab o'zining qadimiylik hususiyatiga ega bo'lgan Chust pichog'i va do'ppisining kelib chiqish tarixi bilan yaqindan tanishmoqdalar. Tog'li hududda istiqomat qilgan qadimiy Chust aholisi noyob metallardan yasalgan pichoqlardan nafaqat mehnat quroli sifatida, qolaversa o'zlarini yovdan himoya qilish maqsadida ham foydalanishganligi, pichoqlar qora po'latdan tayyorlangani uchun turli davrlarda ham o'z nufuzini yo'qotmaganligi bilan turistlarni yanada o'ziga jalb etadi. Pichoqchilikda usta bo'lgan qadimgi chust pichoqchilari o'zlari tayyorlagan pichoq, xanjar va qilichlarni o'z davrida Qo'qon xonligiga ham yetkazib, uning harbiy salohiyatini yuksalishiga o'z hissasini qo'shgan.

Milliy hunarmandchilikni noyob turi hisoblangan pichoq va uning turlari hozirgi kunda ham xaridorligi bilan ajralib turadi. Bu hunarmandlar tayyorlayotgan pichoq turlarini nafaqat tuman, viloyat, balki respublikamizning turli hududlaridan kelgan mexmonlar ham sovg'a va uy ro'zg'or buyumlari sifatida xarid

qilishmoqda. Bundan tashqari, mamlakatimizga tashrif buyurgan chet ellik mehmonlar ham Chust pichog'ini O'zbekistonnig milliy ramzlaridan biri sifatida sovg'a uchun sotib oladilar. Chust pichog'i bilan birgalikda do'ppi ham o'zining uch yarim ming yillik tarixiga ega. Tarixiy davrlar mobaynida do'ppining to'rtgula, zirova, ova, ayyub, zira, sotim, tog', ilova, bulbulcha ramzi, uzum, quyosh ramzi, bug'doy va humo qushi ramzli va yana boshqa ko'plab nusxalarini xorij davlatlarining aksariyati bilishadi. Do'ppi nusxalari orasida eng qimmatbaho va nozik nusxasi hisoblangan satn do'ppi turi hisoblanib, uning tayyorlash jarayoni boshqa turlariga qaraganda uzoqroq davom etadi va bu tur bilan asosan CHust shahrida mazkur hunarmandchilik turi bilan shug'ullanidagan oila vakillari tomonidan tayyorlanadi. Do'ppining bu nozik nusxasi hozirgi kunda ko'proq yurtimizga tashrif buyurgan xorijlik mehmonlar olishini hunarmandlar o'z so'zlarida ta'kidlashmoqda. Shu bilan birga hududga tashrif buyurgan nafaqat xorij turistlari, qolaversa boshqa viloyat va tumanlardan kelgan mehmonlar ham pichoq va do'ppining tayyorlanishini, tikilish uslublari va preslash jarayonlarini ko'rish uchun hunarmandchilikni mazkur sohasi bilan shug'ullanadigan xonadonlarga, kichik temirchilik do'konlari bilan yaqindan tanishish maqsadida tashrif buyurishmoqda. Xaqiqiy Chust pichoq va do'ppilari 80000-200000 so'm atrofida metall turi va nozik nusxalariga qarab tuman dexqon bozoridagi kichik rastalardan sotib olish imkoniyatiga ega bo'lmoqdalar.

2.2. Pop - Chust – Buonomozor - G'ova marshruti. Pop tumanidan boshlangan mazkur marshurutda Farg'ona vodiysining eng qadimiy manzilgohlaridan biri bo'lgan Chust tumanidan o'tadi. Unda sayyohlar betakror tabiat manzarasi, xunarmandchilik markazlari, madaniyat va istiroxat bog'i, tarixiy arxeologik yodgoliklar, muzeylar, masjidlar, Buono mozor tarixiy qadamjoyi, bolalar oromgoxlari, G'ova hududidagi rekratsion dam olish maskanlari bilan yaqindan tanishadilar. Viqorli tog'lari so'lim soy vodiylari, dorivor o'simliklar va shifobaxsh buloqlar, sog'lomlashtirish maskanlari, mevali bog'lar, o'tloqli yaylovlar, sayroqi qushlar ovozidan bahramand bo'lishi bilan birga qoyali tog'larda uchraydigan g'orlarni ko'rish va ular atrofida sayir qilishning ekoturistik

imkoniyati mavjud. Hududdagi diniy turizm bilan bog'liq bo'lgan qadamjoldan Mavlono Lutfilloh, Otchopar Eshonbuva, Abduraxmon xoji ibn Avf kabi tarixiy obidalar hamda ziyoratgoxlar ekoturizmni komplekslik hususiyatini ochib beradi.

2.3. Namangan - Kosonsoy - Mug'tepa - Namangan tog'oldi marshruti. Bu ekoturistik rayonga viloyatning Kosonsoy tumanining 500-2000 m gacha ko'tarilgan hududlari Yettikon - Qo'qimboy tog' oldi hududlari va adirlar kiradi. SHimoldagi tog' va tog' etaklari o'ziga xos geologik tuzilishga ega. Kosonsoy tumani dengiz sathidan 800 m balandda joylashgan tog'li hudud ekoturizm ob'ektiga mos. Agroturizm ob'ekti bo'lib paxtachilik, donchilik, bog'dorchilik, chorvachilik rivojlangan qishloq rayonlarini olish mumkin. Shaharlardja miloddan oldingi II-I asrlarda barpo etilgan Kushon davlatining poytaxti bo'lgan Mug'tepa tarixiy yodgorligi, XVIII asr yodgorligi Jome masjidi, XV-XVI asr yodgorligi Mahdumi A'zam Kosonsoy maqbarasi, XVII-XVIII asr yodgorligi G'o'zapoya masjidi, XVIII asr yodgorligi Yusufxon Eshonto'ra majmuasi ekoturizmni tarixiy turizm bilan birga olib borish imkoniyatini yaratadi. Kosonsoy sanatoriyasi kompleksi, madaniyat va istiroxat bog'i, o'lkani o'rganish muzeyi, markazlari, Kosonsoy havzasining ikki sohilidagi oromgohlar, dam olish maskanlari, madaniy ma'rifiy markazlari, salqin va kishi ruxiyatini yaxshilovchi so'lim buloqlar va atrofidagi jozibali tabiat kompleks ekoturistik marshrutlarni tashkil etishga ko'maklashadi .

2.4. Namangan - Chortoq - Mamay - Nanay marshruti. Namangan shaxridan turistik yo'nalish sifatida tashkil etiladi va Chortoq tumanidan oqib o'tuvchi Chortoqsoyning har ikki yonbag'iridagi Chortoq, Gulshan, Bolalar sog'liqni qayta tiklovchi dam olish maskanlari va oromgohlar, shifobaxshlik hususiyatiga ega bo'lgan buloqlar, tumandagi madaniyat va istiroxat bog'iga, tabiiy ekzotikalar kabi ekoturistik kichik hududlarga turistlar belgilagan marshurutlarida sayohatlarni amalga oshirishlari mumkin. Mazkur ekoturistik marshurutda sayyohlar Baliqliko'l majmuasi, Zirkmozor ziyoratgohi, Bibi Naima Sutli bulog'iga, Alkom acha, Qandiyontepa, Oqtomtepa, Ko'kyortepa, Julontepa,

Qo'rg'ontepa kabi bir qator ziyoratgohlarga, tarixiy-arxeologik yodgorliklarni ko'rish imkoniyatlariga ega bo'ladilar.

Mazkur marshurutning ikkinchi bosqichi Yangiqo'rg'on tumanidagi Mamay va Nanay qishloq hududlariga rejalashtirilgan bo'lib, unda sayyohlar O'ng'or tog'idagi bir qator g'orlar, qoyali tog'lar va Podshootasoy daryo havzasida tashkil etilgan dam olish maskanlarida tunashlari mumkin. Turistlar sayohat davomida turizmning rafting, shop, ekstremal va ekoturizm kabi turlaridan foydalanishlari tavsiya etiladi. Birgina dam olish maskani Ko'ksaroy sihatgohi 1967 yilda tashkil etilib unga yil bo'yi 2500-3000 nafar turistlar tashrifi kuzatilmoqda.

Hozirgi kunda turistlar uchun 100 ga yaqin zamonaviy turar joylar, 100x50 hajmdagi suzish havzasi va 100x60 hajmdagi sport maydoni, 500 kishiga xizmat ko'rsatadigan ovqatlanish shoxobchasi, san'at saroyi, fotostudiya, tibbiyot maskanlari, savdo va bozor shoxobchalari, bolalar sport maydonchalari, servis xizmati, otda, tuyalarda sayr qilish uyushmasi, kashtanzor, chinorlar, archalar, terakzorlar, yong'oqzorlar xiyobonlari va gulzorlari, olma, olxo'ri, nokzor bog'lari, dorivor va shifobaxshlik hususiyati yuqori bo'lgan zizifora kabi o'simlik dunyosining bir qator turlarini ko'rsatish mumkin.

3.Sirdaryo o'ng sohili tekislik ekoturistik rayondagi marshrutlar:

3.1. Namangan-To'raqo'rg'on –Axsikent -Shaxant -Namangan marshruti.

Sirdaryoning o'ng sohili tekislik ekoturistik rayonning birinchi marshuruti bo'ylab sayohatni tashkil etadigan turistlar dastlab To'raqo'rg'on markaziga kelgach Axsikent tarixiy-arxeologik majmuasiga so'ngra, Shaxant salomatlikni qayta tiklash maskaniga tashrif buyurishadi.

Qadimda Farg'ona vodiysining poytaxti bo'lgan Axsikent Sirdaryoni o'ng sohilida joylashib, 400 ga maydonidan iborat. Bu tarixiy shahar aholisi o'z davrida 200 ming kishiga yetgan. Savdo markazi, xonaqoxlar, 4 ta himoya qo'rg'ontepaliklar, madrasa, majmua, harbiy mashg'ulot o'tkazadigan maydon, oziq-ovqat va qurol aslsaha saqlaydigan yer osti omborlari, hammom, xon saroyi, bog'lar ichiki va tashqi sayyohlarni hozirda ham jalb etmoqda. Tarixiy turizimni o'zida mujassam etgan Axsikentning sharqiy tomonidan Sirdaryo havzasi oqib o'tishi

hisobiga qalaning suvga tutash joylarida yemirilishi, 1960 yildagi zilzila Axsikentni xaroba holatiga keltirgan. Hozirgi paytda bu tarixiy yodgorlik davlat dasturiga binoan qayta ta'mirlash, tiklash, muzeylar qurish, atrofini bog'larga aylantirish va turistlarni jalb qilish maqsadida qayta ko'rib chiqilmoqda. Axsikentdan 2 km shimoli sharqda 40 mingdan ortiq aholi yashaydigan Shaxant qishlog'ida shifobaxsh mineral buloqlar va balchiqdan foydalangan holda yurtimizning barcha viloyatlaridan salomatlikni tiklash maqsadlarida sayyohlar turizmning nozoturizm turini rivojlantirmoqda. Undan mevali va manzarali bog'lar, hiyobonlar, ko'l va favvoralar, zoopark filiali, ovqatlanish shohobchalari, savdo va maishiy xizmat uylari, sport, dam olish maskanlari, Xo'ja Axmad Vali tarixiy yodgorliklari ham mavjudligi turizmning eko-nozo-ekstremal-tarixiy kompleks turlarini yanada rivojlantirish imkoniyatini beradi.

To'raqo'rg'on tumanida G'oyibnazar qozi, Palasbon ota tarixiy yodgorliklari, Kaptarxona qishlog'idagi Umar Shayx Mirzoning ramziy qabri, Mahdumi A'zam Kosoniy avlodiga mansub bo'lgan Abdulmoniy maqbaralari viloyatning tarixiy qadamjoylari ro'yxatiga kiritilgan.

3.2. Namangan shahri marshruti. Viloyat markazidan boshlanadigan mazkur marshurut shaxardagi hunarmandchilik markazlari, zamonaviy savdo do'konlari, madaniyat va istiroxat bog'lari (3ta), tarixiy qadamjolar va arxeologik yodgorliklari bilan yaqindan tanishadilar.

Namangan shahri hududidan oqib o'tuvchi Yangiariq, Shimoliy Farg'ona kanali shaharda o'ziga xos iqlimiy sharoit yaratibgina qolmay balki rekreatsion tibbiyot, diniy, tarixiy, sport kabi xizmat ko'rsatuvchi turlarini hosil qilgan. Shaharda A.Navoiy nomli viloyat drama va komediya teatri, o'lkani o'rganish muzeyi va filiallari, Motamsaro ona monamenti, bir qator turli sport saroylari (Navbahor, Barkamol avlod, va suzish suv havzalari, veletrek, chim ustida xokkey, otchopar, N.Namongoniy, Azizxo'ja Eshon madrasasi, Mavlono Namongoniy, Mulla qirg'iz madrasasi, Mulla Bozor Oxund majmuasi, Maxdumi Eshon masjidi, Qodirxo'ja Eshon kabi tarixiy va diniy turistik majmalari viloyat markazida joylashgan.

3.3. Namangan-Uychi-Uchqo'rg'on-Namangan marshruti. Uychi tumani viloyat markazidan 15 km shimoliy g'arbda joylashgan shahar bo'lib, u dengiz sathidan 600 m balandlikda Namangan–Uchqo'rg'on magistral yo'lida Sirdaryoning o'ng sohilida joylashgan. Adir va adir orti tekisliklarining umumiy maydoni 29,5 ming km² teng. Hozirgi aholisi eng zich va uning soni 210 mingdan oshiq bo'lgan bu marshrut Shimoliy Farg'ona, Katta Namangan kanallari bilan birga Podshootasoy, Chortoqsoylari oqib o'tidagan gidroinshootlar atrofida dam olish maskanlari, oromgoxlar, shifoxonalar, sog'lomlashtirish maskanlari, sport va san'at saroylari, madaniyat va istirohat bog'larini qamrab oladi. Ekoturizm bilan birgalikda tarixiy turizmni tashkil etuvchi Tariqmozor, Nog'oratepa, Niyozbektepa, Oqtepa, Qoratepa, Oqgumbaztepa, Toshloqtepa, Ovchibuloqtepa, Qizbuloq, Mashxad kabi tarixiy qadamjolar mavjud.

Uchqo'rg'on Namangandan 40 km uzoqda joylashgan 30,7 ming km² maydonni egallagan, aholisi 190 ming kishidan iborat rayonning shimoliy va g'arbiy qismlari Qirg'iziston Respublikasi, Janubiy tomoni Norin, g'arbiy tomoni Uychi tumanlari bilan chegaradosh. Tuman geoekologik sharoitini belgilovchi xarakterli hususiyati Norin daryosi, undan boshlanuvchi 5 ta yirik kanal va soylar Uchqo'rg'on suv tugunining hosil qilganligi va uni tuman tabiatiga ijobiy ta'siridadir. Uchqo'rg'on suv ombori atrofida so'lim va salqin manzarali hamda mevali bog'lar, sanatoriy, shifoxona, oromgoxlar, dam olish maskani, nuroniylar va yoshlar bog'lari, vokzal, avtovakzal, sport, san'at shaxobchalari tashkil etilgan. Hududda tarkib topgan Nomsiztepa, O'g'riyortepa, Norinkaliklar, Oqtepa, Uchyog'ochtepa, No'shkantepa, Gultepa, Beshtepa, Qo'shtepa kabi tarixiy qadamjolar, yodgorliklar va masjidning mavjudligini ekoturlan bilan birga tarixiy va diniy turlarni kompleks rivojlantirishni talab etadi

4.Sirdaryo chap sohilidagi ekomarshrutlar:

4.1. Namangan-Sirdaryo-Sho'rsuv-Namangan marshruti. Istiqbolda taklif etilayotgan mazkur ekomarshrut Mingbuloq tumanining Gurtepa MFY hududida tarkib topgan Sho'rsuv aholi manzilgohidagi bannologik davolash maskaniga yo'naltirilganligi bilan xarakterlanadi.Hududning geografik o'rni va yer osti

suvlarining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda inson salomatligini qayta tiklovchi, shifo va qisqa muddatli dam olish maqsadida 1980 yilda tashkil topgan. Inson salomatligini tibbiy ko'rsatkichlari atrof-muhit holati bilan chambarchas bog'liq. Shunday ekan, tabiiy resurslar va ulardan oqilona foydalanish, ularni muhofaza qilish har-bir insonning burchidir. Tabiiy ravishda uchragan suv tarkibida brom, fluor, oltingugurt kabi moddalar tashrif buyurgan 1500-2000 nafar aholining salomatligini ta'minlash uchun xizmat qilmoqda. Ular bot, revmatizm, bo'g'imlarda tuz to'planishi, teri kasalliklarini bartaraf etishda sog'liqni saqlash hodimlari tomonidan berilgan tavsiyalarga ko'ra foydalanish imkoniyati yaratilgan. Sho'rsuv maskanidagi suvning harorati $+70S^0$ bo'lib, u $+10, +15, +20, +25 +30 S^0$ dagi maxsus vannalar, tibbiyot hodimlari va zamonaviy jihozlar bilan ta'minlangan.

4.2. Namangan — Markaziy Farg'ona cho'l landshafti — Namangan marshruti. Cho'l mintaqasi, uning tabiiy, ijtimoiy-iqtisodiy sharoitini tadqiq etishning dolzarbligini BMT tomonidan 2006 yilni "Cho'llar va cho'llanish halqaro yili" deb e'lon qilinishi munosabati bilan olib borilgan chora-tadbirlar ko'lamidan ibtib olish mumkin. Bu borada mustaqil O'zbekiston Respublikasida ham ijobiy ishlar, jumladan turizm sohasida ham foydalanish ko'lami bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Bunday tabiati nozik ekotizimlarni muhofaza qilish, uning tabiiy resurslaridan oqilona foydalangan holda ekoturizmni rivojlantirish, cho'l mintaqasida tarqalgan, lekin yo'qolib ketish xafi bo'lgan o'simlik va hayvonot olamini saqlab qolish prioritet ilmiy izlanishlar ko'lamidan joy olmoqda.

Viloyatining janubiy qismida joylashgan, Mingbuloq tumanida ham o'ziga xos tabiiy ekoturistik ob'ektlar mavjud bo'lib, ularning asosiy yer fondi Markaziy Farg'ona cho'llaridan iborat. Cho'l mintaqasining o'ziga xos xususiyatlari, tarkib topishi birinchi navbatda Farg'ona vodiysining tabiiy geografik o'rni bilan bevosita bog'liqdir. Mazkur vodiya Tyanshan va Oloy tog' tizmalari orasida gertsin tog' burmalanishida paydo bo'lgan tektonik botiqda joylashgan. Vodiya hududida dastlabki quruqlik paleozoy erasida tog'lar o'rnida paydo bo'lib, mezozoyda adirlar

ko'tarilgan, nihoyat, vodiyning tekislik qismi esa to'rtlamchi davrda to'liq quruqlikka aylangan.

Mingbuloq tumanining Gulbog', Gurtepa, Alami, Baland Gurtepa MFYlarida aholi istiqomat qilmaydigan hududlaridagi qum barxanlari ekoturistik ob'ektdir. Aholi vakillari o'z salomatliklarini qayta tiklash maqsadida yilning iyul-sentyabr oylarida cho'lga tashrifi kuzatilib, tibbiyot sohasida kasalliklar ro'yxatida qayd etilgan bo'g'im, bot va tayanch harakat tizimi (grija xastaligidan tashqari) kasalliklarini tabiiy ravishda davolashda o'z samarasini bermoqda. Kuzatuv va tahlillar natijasida tabiiy yo'l bilan davolanish maqsadida borgan aholi vakillarini salomatliklarini qayta tiklanish holatlari kuzatildi. Gulbog' hududidagi qum barxanlariga 2017 yilning 20-25 avgust sanalarida 300 nafar kishi nozoturizm ishtirokchisiga aylandi. Qum barxanlariga davolanish maqsadida kelgan aholiga zamonaviy servis xizmatlarini o'z vaqtida ko'rsatish, tashkil etish va rivojlantirish lozim. Bo'g'im xastaligi bilan borgan insonlar kunning birinchi yarmida ya'ni soat 10:00 dan 12:00 gacha tananing oyoq qismidan boshlab, 20-30 daqiqa oyoqning 5-10 sm qismi qumga tiqiladi, so'ngra son va tananing quymich qismigacha qum zarachalari bilan to'ldiriladi. Bu holat kunning ikkinchi yarmida ham takrorlanib, quyosh nuridan kelayotgan harorat biroz pasaygandan so'ng soat 16:00 dan, 17:30 gacha ham tabiiy davolanish profilaktika ishlari olib boriladi. Yuqoridagi tabiiy yo'llar bilan shifo topish jarayonida yuvinish, dam olish va ovqatlanish xizmatlaridan keng foydalanish imkoniyatlari biroz cheklanganligi servis xizmatlarini takomillashmaginini ko'rsatadi. Tadqiqotlar natijasida yana shuni aytish mumkinki, bunday ekoturistik hududlarga faqat davolanish nuqtai-nazaridan emas, balki cho'l mintaqasiga sayohat, o'ziga xos dorivor o'simliklarni terish va turlarini ko'paytirish, hayvonot dunyosini tabiiy harakatlanishini kuzatishi ham mumkin.

Mingbuloq tumanidagi mavjud ekoturistik hudud istiqbolida servis xizmatlarini takomillashtirish maqsadida mahalliy va mintaqaviy loyihalar asosida biznes rejalarni tayyorlash hozirgi kunning davr talablaridan biridir. Amaliyotga tadbiiq etilayotgan loyihalar natijasida shuni ko'rish mumkinki, o'z navbatida bu

hududlarga ekoturistlarning salmog'i ortishi bilan birga aholini ishga joylashtirish masalalarida ham ijobiy ishlar amalga oshadi.

2.3.Namangan viloyatida ekoturizmni rivojlantirishdagi istiqbolli yo'nalishlar

Namangan viloyati hokimi tomonidan 2017 yil 1 martda viloyatda 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Xalq bilan muloqat va inson manfaatlarini yilida amalga oshirishga oid Davlat dasturi" tasdiqlandi. Unga binoan Viloyat hokimligi boshchiligida tegishli chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish, turistik xizmatlarni diversifikatsiya qilish va yangi turistik marshrutlarni yaratish, hududlarning turistik imkoniyatlarini o'rganish va yangi turistik mahsulotlar va marshrutlarni shakllantirish, aholi uchun turlar va ekskursiyalar o'tkazish bo'yicha chora-tadbirlar kompleksini amalga oshirish rejalashtirilgan.

Xitoylik tadqiqotchi I.Ven XXR misolida turizm, jumladan ekoturizmni rivojlantirish avvalam bor uzoq muddatga mo'ljallangan ierarxik, ya'ni qat'iy ketma-ketlikdagi samarali turistik infratuzilmani shakllantirishni taklif qilmoqda.

Xitoylik Lyu Szyamin esa mamlakat miqyosida ekoturizmni ilmiy va rejali rivojlantirish uchun avvalam bor ilmiy tadqiqotlarni moliyalashtirish va ulardan aniq bir takliflarni olish, ularni sinovlardan aniq hududlar miqyosida o'tkazish va chora-tadbirlarni yaqin va uzoq muddatli loyihalarini yaratishni taklif etadi. Fu Botsze ekoturizmni rivojlantirish istiqbollari yaratishni milliy miqyosda zonallashtirish kontseptsiyasini yaratishdan boshlamoq kerakligi aytadi. Boshqalar tomonidan berilgan mazkur kontseptsiyalar nafaqat milliy miqyosda balki lokal ekotizimlar miqyosida ham yaratilishi mumkinligini takidlamodalar.

Ukrainalik mutaxassislar tog'li hududlarda joylashgan sanitar-kurort va rekratsion maskanlari faoliyatini ekologiyalashtirish masalasini qo'yganlar. Ular ekoturistik mashrutlariga tashrif buyurib, shifo topish maqsadida kelgan aholi vakillari hamda dam oluvchilarni taklif qilishdan avval ularga atrof-muhit muhofazasiga doir tegishli ma'lumotlarni berishni tavsiya etganlar. Jonli tabiat

ob'ektlarini saqlab qolish maqsadida angiyalik olimlar sog'liqni qayta tiklovchi va yozgi bolalar dam olish maskanlarida tabiat va uning tirik organizmlar bilan bog'liq bo'lgan jonli burchaklarni tashkil etish orqali ularga ona tabiatga bo'lgan mehr-muhabbatlarini shakllantirish o'ta muhim ahamiyat kasb etishini ta'kidlab o'tishgan.

Taniqli rus ekolog tadqiqotchisi A.V. Drozdov zamonaviy ekoturizm kontseptsiyasini yaratish va uni amalga tatbiq etishda: fan – ta'lim – amaliyot tizimidagi vazifalarni global, regional va lokal miqyosda ishlab chiqishni taklif etgan. U ekologik imperativlar va rekratsiya geografiasining asosiy vazifalarini sanab o'tgan. Ekoturistik kontseptsiyalarni yaratish va chora-tadbirlarini turistik nuqtai nazardan tahlil qilishdagi tushunchalar, printsiplar, belgilar va shakllarni keltirib o'tgan. A.V. Drozdovning kasbdoshlari esa ekoturizmga tegishli dastur va rejalarini yaratishni rossiyalik va xalqaro tajribalardan kelib chiqqan tarzda amalga oshirishni tavsiya etganlar.

N.T.Shamuratova hozirda esa turli miqyosdagi 9 ta kontsepsiya mavjudligi, ular dunyo hamjamiyati e'tirof etgan 12 ta printsipga rioya qilgan holda ishlab chiqilganligi e'tirof etmoqda. Lekin 2017 yil 7 fevralda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoevning maxsus farmoni bilan qabul qilingan Harkatlar strategiyasida ko'rsatib o'tilgan 5 ta asosiy yo'nalishlar va so'ngi paytda olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarni qayta ko'rib chiqish zamon talabidir.

Namangan viloyatining bir qator shahar, tuman va aholi manzilgohlarida olib borgan tadqiqotlar natijasi shuni ko'rsatadiki, Axsikent, Munchoqtepa, Mug'tepa kabi tarixiy arxeologik yodgorliklarda turistik jozibadorlikni ko'rish va uni mamlakat istiqboli yo'lida rivojlantirish mumkin. Ekoturizmni tashkil etishning xorijiy tajribasini o'rganish bilan birga, nafaqat Farg'ona vodiysida, qolaversa viloyatlarda ham rivojlantirish uchun quyidagi tavsiyalarni umumlashtirib bergan: sayyohlar uchun infratuzilmani yaratish; mehmonxona biznesini to'g'ri tashkil etish, reklamani yo'lga qo'yish, sayyohlik firmalarini ko'paytirish.

Namangan viloyatining 11ta qishloq tumanlaridan 7 tasi bevosita Davlat tasarrufida "qaramog'ida". Ular Mingbuloq, Kosonsoy, Norin, To'raqo'rg'on,

Chortoq, Yangiqo'rg'on va hatto Chust tumanlaridir. Bu qishloq tumanlarini dotatsiyadan qutqarish viloyat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini jadallashtirish demakdir. Aynan shu asosda mintaqaning umumiy ijtimoiy - iqtisodiy vaziyati ham tubdan o'zgaradi. Iqtisodiyot sektorida hozirgi kunda yuqori daromad keltiradigan sohalardan biri turizm va uning yangi tarmoqlari hisoblanib, uni joylarda tashkil etish va mavjud imkoniyatlaridan kelib chiqib rivojlantirish muhim vazifalardan biridir. Tumanlar iqtisodiyotini istiqbolda rivojlantirish va dotatsiyada chiqarishda turizm va uning tarmoqlarini shakllantirish, xorijiy investorlar bilan hamkorlikda investitsiya jozibadorligini ta'minlash zarur.

Viloyat hududida turizm tarmoqlarini rivojlantirish borasida bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, agroturizmni tashkil etish va rivojlantirish istiqbolli uchun To'raqo'rg'on tumanida 500 ga yer maydonida gilos va olma kabi intensiv bog' maydonlari tashkil etildi. Hududlarda yetishtirilayotgan mevalarni qayta ishlaydigan korxonalar va saqlash imkoniyatiga ega bo'lgan muzlatgichlarni qurish ishlari ham nihoyasiga yetkazildi. Agroturizm tarmog'i taraqqiy etgan Italiya davlati bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish, tajriba almashish, agroturistik maskanda qayta ishlashdan tayyor mahsulotga aylanishgacha bo'lgan texnologik jarayonlarni yaqindan tanishish imkoniyatlariga ega bo'lishadi.

Namangan viloyat xokimining 2017 yil 1martda qabul qilingan davlat dasturiga ko'ra Chodak, Parda Tursun, Arashonbuva, Nanay, Mamay, va G'ova hududlarida turizmning eko, shop va ekstremal turlarini rivojlantirish ko'zda tutilgan. Axsikent, Munchoqtepa, Buvanomozor, Baliqko'l, Mug'tepa, qadimiy Kushon davlatining arxeologik yodgorliklari kabi tarixiy obidalar, ziyoratgohlarni qayta ta'mirlash, tarixiy va diniy turizmni rivojlantirish, Kosonsoy, Chortoq, Gulshan, Paxtachi, Ko'ksaroy, Uchqo'rg'on, Shaxant, Shifo suv, Oromgoh kabi sog'liqni qayta tiklash va dam olish maskanlarida tibbiy va ekstremal turizmni, Norin, Qoradaryo va Sirdaryo havzalarida qayiq va paromlarda sayohat qilish, bu daryolar hosil qilgan noyob o'simlik va hayvonlarga ega bo'lgan orollarda ekoturizmni rivojlantirish, viloyat iqtisodiyotiga daromad keltiruvchi va xorijiy sayyohlarni jalb etish kabi siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy ishlar loyihalashtirilgan.

Ekologik zararsiz dorivorlik xususiyatiga ega bo'lgan mahsulotlarni aholiga yetkazish, qayta ishlash, texnologik va toksikologik me'yorlariga to'la javob beradigan eksportbop mahsulotga aylantirish zaruriyati mavjud. Sug'oriladigan yer maydonlarning tarkibidagi kam rentabilliy maydonlarini muhofaza qilish va uning hozirgi holatini saqlab qolish maqsadida viloyatning Chust, Kosonsoy, Pop va Mingbuloq tumanlarida aholi salomatligini qayta tiklash va bir qator kasalliklarga davo hisoblangan kovul dorivor o'simligini yetishtirishni amalga oshirish, Yevropa tibbiyotining farmatsevtika sohasi uchun eksportbop xom ashyosini yetkazib berishni takomillashtirish lozim.

Ekoturizmni rivojlantirish uchun har-bir joyning ekotizim imkoniyatlaridan sayyohlik yo'lida oqilona foydalanish hozirgi kunning dolzarb vazifalaridan biri. Boshqacha qilib aytganda "Servis tabiat" industriyasini yaratish va uni davlat siyosati darajasiga olib chiqish lozim. "Servis tabiat" industriyasini amalga oshirishda birinchi navbatda xorijiy tajribalarni o'rganish, jumladan Kosta Rika tajribasini ilmiy va amaliy tadqiqot olib borilayotgan Namangan viloyatining tog'li hududlarida ham qo'llash va undan samarali foydalanish mumkin.

Namangan viloyatining ekotizimlarini o'rganish va balandlik nuqtai-nazaridan ekotizimlarga ajratish, tahlil qilish, hudud uchun xos bo'lgan o'simlik va hayvonot dunyosini muhofaza qilish borasida olib borilgan ilmiy tadqiqot natijalariga ko'ra kiyik o'tining 2 turi Pop, Chust va Yangiqo'rg'on tumanlarining tog'li hududlarida zeziforani endemik holatda uchrashi aniqlangan. Turistlar mazkur tabiiy ekzotikalarga tashrifi chog'ida nafaqat dam olish, qator kasalliklarga (qon bosimi va yurak qon tomirlari) shifo bo'luvchi zeziforani tabiatdagi vegetatsion jarayonini, tabobatda damlama sifatida qo'llanilishini va tayyorlanishini ko'rish, baland tog' daralarida undan tayyorlangan sharbatni chanqog'ini qondirish maqsadida iste'mol qilishlari uchun o'zlari bilan olib ketishlari mumkin.

Umuman olganda milliy ekoturizmni rivojlantirish o'ta dolzarb masalalardan bo'lib, u yurtimiz istikbolida barqaror rivojlanishini ta'minlab beruvchi omillardan

biridir. Shunday ekan, mazkur tog' ekotizimlarida servis xizmatlarini istiqbolda rivojlantirish ishlarini amalga oshirish lozim.

Namangan viloyatida hozirgi kunda 180 ming gektar sug'oriladigan yerlarni 70 foizdan ortig'i adirlar hissasiga to'g'ri keladi. Adirlarining landshaft-agroekologik sharoitlarini hisobga olgan holda adir yuzasini ya'ni tuproq qoplamini uzoq yillar himoya qiladigan, kam suv talab qiladigan ko'p yillik mevali daraxt ko'chatlarini ko'paytirish va undan yuqori hosil olish imkoniyatiga ega bo'lgan hududlar sirasiga kiradi. Yurtboshimiz tashabbuslari bilan Xitoy davlatidan keltirilgan yong'oq ko'chatlarini hamda moy beruvchi soya va zaytunzorlarni barpo etish hozirgi kunning dolzarb vazifalaridan biridir. Agroturistik markazlarni tashkil etish, yetishtirilgan hosillarni qayta ishlaydigan agroinfratuzilmalarni barpo etish birga aholining ma'lum bir qismi yangi mehnat faoliyatlari bilan taminlanadi va turizmning agro, eko hamda shop tarmoqlarini rivojlanishini ko'rishimiz mumkin.

Keyingi yillarda respublikamiz hukumati tomonidan oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish va ularni turlarini kengaytirish, aholini ish bilan ta'minlash, daromadlarini oshirish maqsadida agrar sohaning noan'anaviy turlaridan biri hisoblangan asalarichilik rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Bu borada Namangan viloyatining tabiiy-iqlim sharoiti, tog' va tog' oldi hududlarida tarqalgan dorivor o'simlik dunyosining shifobaxshlik hususiyatlarini inobatga olgan holda tog' oldi tumanlari hisoblangan Yangiqo'rg'on, Kosonsoy, Chust, Pop tumanlarining tog' oldi zonalarida asal mahsulotlarini yetishtiradigan fermer xujaliklarini va asalari uyalarini yanada rivojlantirish zarur. Asal mahsulotlarini paydo bo'lishi va durda bog'lashida $+12^{\circ}$ - 13° S haroratni bo'lishi asalarichilikni rivojlantirishga bo'lgan qiziqish va unga bo'lgan ehtiyojni doimiyligini ta'minlaydi. Agarda harorat $+35^{\circ}$ 45° S va undan yuqoriga ko'tarilsa, asalning sifati va shifobaxshlik xususiyati yo'qoladi. Shuning uchun asal sifatini yaxshilash maqsadida tog' oldi hududlarida asalarichilikni rivojlantirish tavsiya etiladi. Bunday hududlarda yetishtiriladigan asallar *polifyor* asallari hisoblanib, ularning tarkibi akatsiya, shashir, oqquray, yantoq, chitir, zezifora gullaridan va

o'simliklardan iborat bo'lib, madaniylashgan o'simliklardan tayyorlanuvchi *monofyor* asallardan keskin farq qiladi. Shu bois, viloyatning tog' va tog' oldi zonalarida asalarichilikni rivojlantirish, axoliga asal va asal maxsulotlarini arzon narxlarda yetkazib berish, axoli salomatligini kayta tiklash uchun xizmat qiladi. Mazkur tabiiy ekzotikalarga yilning to'rt faslida ham turistlarni tashrif buyurishi va ekotizimlardagi voqealikalarni tomosha qilishlari ham ayni haqiqat. Shu maqsadda tog' va tog' oldi zonalarida agrar sohani noan'anaviy turlarini rivojlantirishda hududga tashrif buyurgan turistlarga asal va asal mahsulotni tayyorlanish jarayonlarini va bir nechta kasallik turlariga shifo bo'lishligi haqida ma'lumotlarni banner, bilbord, buklet, infografika va vidioroliklar ko'rinishida taqdim etish ishlari xam istikbolda rejalashtirilgan.

Namangan viloyatining janubiy qismida joylashgan Mingbuloq tumanida ham o'ziga xos tabiiy ekoturistik hududlar mavjud. Mingbuloq hududining asosiy yer fondini Markaziy Farg'ona cho'llari tashkil etib, tumanining Gulbog', Gurtepa, Alami va Baland Gurtepa MFYlarining aholi istiqomat qilmaydigan hududlarida hozirgi kunda tabiiy qum barxanlari mavjudligi bilan xarakterlanadi. Markaziy Farg'ona cho'llarida tipik barxanlar bo'lib, asosan do'ng qumlar asosiy o'rin tutib, qumlarning balandligi 5-8 metr ga yetadi. Tibbiyot sohasida kasalliklar ro'yxatida qayd etilgan bo'g'im, bot va tayanch harakat a'zolari (grija xastaligidan tashqari) kasalliklarini tabiiy ravishda davolashda o'z samarasini bermoqda. Yuqoridagi tabiiy yo'llar bilan shifo topish jarayonida yuvinish, dam olish va ovqatlanish xizmatlaridan keng foydalanish imkoniyatlari biroz cheklanganligi tadqiqotlar natijasida ma'lum bo'lib, mazkur ekoturistik hududda xizmat turlarini keng yo'lga qo'yish maqsadida hududda servis xizmatlarini rivojlantirish lozim. Markaziy Farg'ona cho'llari tarkibiga kiruvchi Mingbuloq hududidagi Qoraqalpoq cho'llarida tibbiy turizm bilan ekoturizmni olib borish mahalliy aholining sihat salomatligini yo'lga qo'yish bilan bir qatorda cho'l ekotizimlaridan oqilona foydalanishga olib keladi. Cho'l landshaftlarini muhofaza qilish va uni o'rganish uchun respublikadagi Qorako'l va Vardanzi qumli cho'l qo'riqxonalari yetarli emas. Tadqiqotlar natijasida yana shuni aytish mumkinki, bunday ekoturistik

hududlarga faqat davolanish nuqtai-nazaridan emas, balki cho'l mintaqasiga sayohat qilish, dorivor o'simlik dunyosi turlarini kuzatish, hayvonot dunyosini tabiiy xarakatlanishlarini ham kuzatishimiz mumkin.

II-bob bo'yicha xulosa

Viloyat miqyosida ekoturizmni rivojlantirish uchun albatta ekoturistik rayonlashtirish ishlarini olib borishga to'g'ri keladi. Zero viloyat miqyosida muayyan ekotizimlarda ekoturlarni o'tkazish ham ijtimoiy ham iqtisodiy jihatdan samarali bo'la olmaydi. Ekoturistik rayon - ekotizimzlarni turistik ko'rsatkichi qarab hududiy qismlashtirish va ularni nomlash. Ekoturistik chora-tadbirlarni qo'llashda *geografik tadqiqotlar predmeti - hududiy bir butunlik*, unda tarixan qaror topgan va roivojlangan holda ekotizimlarni birlashtirish (*davriylik*), ya'ni ekoturizmni boshqa turistik turlari bilan qo'shib olib borish imkoniyatini inobatga olish (*komplekslik*) prinsiplari o'rganildi.

Ishlab chiqilgan 12 ta ekoturistik marshrutlarni ajratilgan ekoturistik rayonlar bo'yicha o'tkazish ekoturizmni *hududiy tashkil etish, davriy moslashtirish* va uni yakka yoki qaysi bir turistik marshurt turlari bilan *kompleks* olib borishning optimallashtiradi. Ekoturlarni tashkil etish, olib borish va hisobini yuritishda, boshqa turistik marshrutlardan farqli ravishda, sayyohlik ob'ektlarining jozibadorligi, betakrorligi, imkoniyatliligi, mazmundorligi, alternativligi, majmualiligi, axborotlanganligi bilan bir qatorda uning *xavfsizligini inobatga olish* birlamchi ahamiyat kasb etadi. Bu esa O'zbekiston Respublikasining 2017-2021 yillarga mo'ljallangan Harakatlar strategiyasining 5.1-bandi 6-xatboshida aks ettirilgan «Favqulodda vaziyatlarni oldini olish va bartaraf etish tizimini takomillashtirish» vazifasiga mos tushadi.

Ekoturistik infratuzilmani yaratishda uch bosqichli turistik markazlarni ma'muriy birliklar doirasida yaratish; ekoturizm moslashtirilgan kichik aholi punktlarida barpo etish; nozik ekotizimlarda tajriba va sinov ishlarini o'tkazishni taklif qilindi. Viloyat bo'yicha 17 ta yo'nalishdagi tavsiya etilgan chora-tadbirlar ekoturlarning hududiylik, davriylik va majmualilik jihatlarini inobatga olgan tarzda ishlab chilishi maqsadga muvofiqligi ilmiy asoslandi.

X U L O S A

Turizm jahon yalpi mahsuloti va iste'mol savdosining 10/1, dunyo eksportining 8 foizini, savdo xizmatining 30 foizi, xalqaro investitsiyalarning 11foizi, 8/1 ish o'rinni ta'minlayotgan industriyaga aylanishida nisbatan yangi va jadal suratlarda o'sib borayotgan ekoturizmning o'rni bor. Shuning uchun ham O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning Harakatlar strategiyasida "Turizm industriyasini jadal rivojlantirish, iqtisodiyotda uning roli va ulushini oshirish, turistik xizmatlarni diversifikatsiya qilish va sifatini yaxshilash, turizm infratuzilmasini kengaytirish" hamda "odamlarning ekologik xavfsiz muhitda yashashini ta'minlash masalasi qo'yilgan".

Turizm industriyasi, jumladan ekoturizmni rivojlantirishning eng maqbul yo'li mahalliy va ma'muriy miqyosda turistik imkoniyatlarni o'rganish, uning ilmiy asoslarini ishlab chiqish va rivojlantirish istiqbolini ishlab chiqishga bog'lik ekan. Namangan viloyati ham bundan mustasno emas. Viloyat miqyosida olib borilgan tadqiqotlar ekoturizmni boshqa turistik turlar bilan aralashtirib yuborish va natijada noaniq statistik ma'lumotlar bazasini yuritish va ilmiy asoslanmagan rejalarini tuzishga olib kelmoqda. Viloyat hokimining 2016 yil 16 fevraldagi "Namangan viloyatida turizm sohasini rivojlantirish dasturi to'g'risida"gi qarorining amaliy ijrosi ta'minlash maqsadida hududning ilmiy asosda turizm industriyasini tashkil etish va rivojlantirishni uning tabiiy sharoitini o'rganish, atrof-muhitni muhofaza qilish, ijtimoiy—iqtisodiyot darajasini aniqlashdan boshlandi. So'ngra, turizm va unga tegishli atama va iboralarning ilmiy asoslash va yagona bir tushunchasi, mazmuni va mohiyatini aniqlashtirib olishni talab etadi. Masalan, turizm – shaxsning doimiy yashash joyidan vaqtinchalik borar joyiga 24 soatdan to 6 oy muddatga ketma-ket, muayyan maqsadda yoki maqsadlarda pul to'llanmaydigan sayohatni turli miqyosda tizimli tashkil etish, olib borish va hisobini yuritish san'ati. Mazkur tushuncha viloyatlarda turizmni tashkil etish, rejalashtirish, hisobini yuritish kabi ishlarga ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Bozor munosabatlariga o'tib borayotgan Namangan viloyatida tumanlarning turistik imkoniyatlarini aniqlash, rejalarini tuzish va istiqbollari belgilash orqali

boshqaruv tizimini yo'lga qo'yish maqsadga muvofiq. Namangan viloyati tumanlari esa ularning tabiati, ijtimoiy holati va iqtisodiy infratuzilmasi biri ikkinchisidan keskin farq qiladi va shuning uchun ham turizmni rivojlantirishda ularga individual yondashishga to'g'ri keladi. Lekin ekoturizm bundan istesno, zero uning asosiy maqsadi ekotizimlarni muhofaza qilish, uning resuslaridan oqilona foydalanish va buzilganlarini qayta tiklashdan iborat. Shuning uchun ham ekologiyaning ob'ekti bo'lmish ekotizimlarning mazmuni va mohiyatini ochib berish, mahalliy miqyosda hududning katta-kichigligiga qarab ekotizimlarni tasniflash, kartaga tushirish, sayyohlik imkoniyatlarini aniqlash masalasi ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi. Zero ekoturizm – shaxsning doimiy yashash joyidan vaqtinchalik biror joyga 24 soatdan to 6 oy muddatga ketma-ket, uning ekotizimlaridan atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish, tabiiy resuslaridan oqilona foydalanish va buzilgan tabiat muammolarini qayta tiklashni maqsad qilib olgan pul to'lanmaydigan sayohatni turli miqyosda tizimli tashkil etish, olib borish va hisobini yuritish san'ati ekan, unda ekotizim alohida ahamiyat kasb etadi.

Ilk bor Namangan viloyatida V ta ekotizim tipi va 14 ta miniekotizim turi ajratib olindi. Miniekotizimlar o'lchami ekologik komponent va elementarining ichki komponentlararo boshqaruv hamda qayta tiklash imkoniyatini yaratuvchi yer maydoni. U 1:200 000 masshtabdagi "Namangan viloyati ekotizimlar kartasi"ni yaratish orqali uning hududiy tarqalish qonuniyatlarini ochib berish imkoniyati berdi. Ekotizimlarni tasniflash va nomlashda uning dominanti qilib baland va o'rtacha balandlikdagi tog' ekotizimlarida o'simlik va hayvonot dunyosi, past tog'lardan to tekislik ekotizimlariga tushib borgan sari kishilik jamiyatining xo'jalik yuritish faoliyati olindi. Ekotizimlar tipi va turi geografik tavsiflandi va ularning har birining hududiylik, davriylik va koplekslik turistik hususiyatlari ochib berildi.

Viloyat miqyosida ekoturizmni rivojlantirishning yana bir ilmiy asosi ekoturistik rayonlashtirishdir. Ekoturistik rayon-ekotizimlarni turistik ko'rsatkici qarab hududiy qismlashtirish va ularni nomlash. Ekoturistik chora-tadbirlarni qo'llashda *geografik tadqiqotlar predmeti — hududiy bir butunlik*, unda tarixan

qaror topgan va roivojlangan holda ekotizimlarni birlashtirish (*davriylik*), ya'ni ekoturizmni boshqa turistik turlari bilan qo'shib olib borish imkoniyatini inobatga olish (*komplekslik*) *printsipalaridan* kelib chiqqan tarzda «Namangan viloyatining ekoturistik rayonlari va marshrutlari» 1: 200000 masshtabli kartasi eng optimal masshtab deb topildi. Ekoturistik rayonlarga ajratishning maqsadi, predmeti, metodi, printsipi va toponimikasi viloyat ekotizimlarini o'ziga xos 4 ta: Chotqol–Qurama tog'li, Chodak–Chust–Kosonsoy–Yangiqo'rg'on tog' oldi, Sirdaryo o'ng va chap sohilidagi tekislik ekoturistik rayonlarga birlashtirildi.

Ishlab chiqilgan 12 ta ekoturistik marshrutlarni ajratilgan ekoturistik rayonlar bo'yicha o'tkazish ekoturizmni *hududiy tashkil etish*, *davriy moslashtirish* va uni yakka yoki qaysi bir turistik marshurt turlari bilan *kompleks* olib borishni optimallashtiradi. Ekoturlarni tashkil etish, olib borish va hisobini yuritishda, boshqa turistik marshrutlardan farqli ravishda, sayyohlik ob'ektlarining jozibadorligi, betakrorligi, imkoniyatliligi, mazmundorligi, alternativligi, majmualiligi, axborotlanganligi bilan bir qatorda uning *xavfsizligini inobatga olish* birlamchi ahamiyat kasb etadi. Bu esa O'zbekiston Respublikasining 2017-2021 yillarga mo'ljallangan Harakatlar strategiyasining xavfsizlik ta'minlash vazifasiga mos tushadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi farmoni, Toshkent, 2017-yil 7-fevral // www.lex.uz.
2. 2016 yil 4 maydagi «Qishloq joylardagi aholiga servis xizmat ko'rsatishni yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi 139-son qarori // www.lex.uz.
3. O'zbekturizm milliy kompaniyasi Namangan viloyatining vakolatli vakilligini 2010 yil 1yanvar holatidagi yillik hisobot materiallari.- Namangan, 2010,-15 b.
4. Namangan viloyati hokimining 2016 yil 16 fevraldagi "Namangan viloyatida turizm sohasini rivojlantirish dasturi to'g'risida"gi qarori
5. Abdullaev O. Namangan viloyati tabiati, aholisi, xo'jaligi.-Namangan: Namangan, 1995.-10-35-b.
6. Abdullaev O. Farg'ona vodiysi: ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jarayonlari.- Namangan: Namangan,2000,11-32b.
7. Арифханова М.М. Растительность Ферганской долины.-Тошкент: "Фан", 1967.-294 с.
8. Вернин Р.С., Рахимова Т. Естественная растительность и пастбища адыров Наманганской области.-Ташкент: "Фан",1982.- 88 с.
9. Дажо Р. Основы экологии. Пер. с англ. – М.: Прогресс, 1975.
10. Давидов Л.К. Водоносность рек, её колебания и влияния на нее физико-географических факторов.- Гидрометеиздат.1947. -162 с.
11. Дроздов А.Б. Экологический императив и рекреационная география.- Известия РАН. Серия География, 1998. 91-98 с.
12. Дроздов А.Б. Экотуризм: определения, принципы, признаки, формы.- Акт. проблема туризма.- Москва, 1999.-40-41с.
13. Дроздов, А.Б. Современный экотуризма: концепции и практика.- Москва. КОНРУС, 2009. - 245-260 с.

14. Егоренков Л.И., Ердавлетов С.Р., Ещё раз к вопросу науки о теризме //Международная научно-практическая конференция. Вестник, (42) - Казахстан, 2016. -22 с.
15. Zokirov A., Xasanov A. Chimyon hududiy ekologik rekratsion maskan (XERM) // Geografik ekologiya va tabiatdan foydalanish muamolari ilmiy tezislari.-Toshkent, 1999. 62-63 b.
16. Кадырова А. “Экологический туризм в Узбекистане // Центр Азия. Экономика. -Тошкент, 2003. -14 с.
17. Казаков А. Эрозионноопасность земель Ферганской долины и пути повшение плодородие эродированных почв.-Тошкент: Мехнат, 1993. - 136 с.
18. Kamolov B.H. Viloyat hududidagi ekoturistik resurslar va ekoturistik marshurutlar Farg’ona vodiysida ekoturizmni rivojlantirish istiqbollari // Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari. - Namangan, 2016. 97-101 b.
19. Kamolov B.H. Davlat dasturi nigohida - turizmni rivojlantirish masala lari (Namangan viloyati misolida) // Farg’ona vodiysida ekoturizmni rivojlantirish istiqbollari. Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari. - Namangan, 2016. 305-307 b.
20. Kamolov B.H. Chodaksoyda ekoturizmni rivojlantirish masalalari // O’zbekiston Geografiya jamiyati axboroti. 48-jild.-Toshkent, 2016. 115-118 b.
21. Kamolov B.H. Mintaqaviy ekoturizmni Farg’ona vodiysida rivojlantirish masalalari // O’zbekiston Milliy universiteti xabarlari. 1/2-jild.-Toshkent, 2017. 44-46 b.
22. Kamolov B.H. Ahsikent, an ancient ekoturism destination of Namangan region // Проблемы региональной экологии журнал.№5.-Россия, 2017. 154-156 с.
23. Камолов В.Н. Chust tumani mustaqillik yillarida. Ilmiy ommabop qo’llanma.-Namangan: Namangan, 2013.-76 b.

24. Kamolov B.H., So'pijanov Q. Mustaqillik yillarida Namangan viloyatida ekoturizmning rivoji // ekologiya xabarnomasi.10-son.-Toshkent, 2016. 51-52 b.
25. Mahmudov.L.M. Axsikent yodgorligini o'rganish va uni turizm manzilgohiga aylantirish istiqbollari. -Namangan: Namangan, 2016. -24b.
26. Lutfullaev.P.M. Ekoturizmni tashkil yetishning xorijiy tajribasi // Farg'ona vodiysida ekoturizmni rivojlantirish istiqbollari. –Namangan, 2016. 235 b.
27. Mirzamaxmudov O.T. Adirlar mintaqasidan rekreatsiya maqsadida foydalanish // O'zbekiston Geografiya jamiyati axboroti. -Toshkent, 2002. 166-167 b.
28. Набиев М.М. Растительность пестроцветных толщ бассейна р. Майлисыя. Восточная часть Ферганской долины.-Труды Ин-та ботаники АН Уз. вып. 5.1959.-28-45с.
29. Nazarov A.A. Tabiatan foyalanishning yekologik-geografik asoslari (Namangan viloyati misolida). Geografiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun taqdim yetilgan dissertatsiya.-Toshkent, 2004. -100-147 b.
30. Nazarov A.A., Mahkamov S.N., Mahkamov I.R. Chodaksoy tabiatini asrang. Ilmiy ommabop qollanma.-Namangan: Ibrat,2013.-32 b.
31. Nigmatov A. N. Ekologiya nima?.-Toshkent: Faylasuflar, 2014. - 58 b.
32. Nigmatov A. Ekologiyaning nazariy asoslari.-T., 2013. – 270 b.
33. Nigmatov A.N.,Shomuratova N.T. Ekoturizm asoslari. O`quv qo`llanma. - Toshkent: Faylasuflar, 2007.-104 b.
34. Nigmatov A.N., Kamolov B.H. Barqaror rivojlanishda ekoturizm mustaqil fan, ta`lim va amaliyot yo`nalishi sifatida // O`zbekiston Geografiya jamiyati axboroti. 49-jild. -Toshkent, 2017. 16-22
35. Rafikov A.A.Geoekologiya asoslari. Ma`ruzalar matni.-Toshkent: O`zMU, 2000.-10-11b.
36. Рахимова Т. Материалы к флоре Чартакских адиров Ферганской долины // Доклады АН Уз, - Тошкент,1973.- 47-57 с.

37. Рахимова Т. Накопление надземное и подземной биомассы в отдельных сообществах Чартакских адыров Ферганской долины. // Узбекистон Биология журнали.-Тошкент,1972. -12-18с.
38. Реймерс Н.Ф. Природо пользование. Словар справочник - М.: «Мисл»,1990. 599 с.
39. Soliev .A. Farg’ona vodiysi daryolari suv oqimimini iqlim o’zgarish sharoitida baholash.G.f.n.ilmiy daraja olish uchun yozilgan diss.-Toshkent, 2008.8-41b.
40. Soliev ye.A.,Umarov H. Namangan viloyati suv resurslarini baholash // O’zbekiston Geografiya jamiyati axboroti.27-jild.-Toshkent, 2006. 46 b.
41. To’qsonov A. Sayyohlik iqtisodiyotning istiqbolli tarmog’i // Bozor pul kredit. 6-son, -Toshkent, 1998. 41-42 b.
42. Тухлиев Н., Абдуллаева Т. Менеджмент и оргонизация бизнеса в туризме Узбекистана. – Тошкент: Чинор, 2006. 18 с.
43. Usmonov M.R. O’zbekistonda turizmni rivojlantirishning mintaqaviy hususiyatlari (Samarqand viloyati misolida).G.f.n. ilmiy daraja olish uchun yozilgan disseratatsiya.-Toshkent,2003.-22-b.
44. Usmonov M.R. Farg’ona vodiysining istiqboli tarmog’i yoxud uning tizimi xususida // Farg’ona vodiysi tabiatini muhofaza qilishning yekologik geografik asoslari.- Namangan, 2003. 85-86 b.
45. Шульц В. Л. Средние сток рек Средней Азия // Метеорология и гидрология в Узбекистане . –Ташкент : Изд.АН Узб., 1955.-231- 246 b.

Internet manbalari


- 1.www.lex.uz
- 2.www.norma.uz
3. <https://tourlib.net/statti.tourism/bochkareva>.
- 4.https://articlekz.com.

I L O V A L A R

ЭКОТУРИЗМ: ТУШУНЧАСИ, МАҚСАДИ ВА ВАЗИФАЛАРИ

Экотуризм – шахсларнинг доимий яшаш жойларидан муайян (24 соатдан кам бўлмаган) муддатга дам олиш, спорт билан шуғулланиш, соғломлашиш, маърифий-маънавий тадбирларни олиб бориш каби мақсадларни қўзлаган ҳолда табиий объектларга қиладиган экологик характердаги саёҳатлари.

Экотуризмнинг мақсади – ҳозирги ва келажак авлодларнинг экологик хавфсизлиги ва барқарор ривожланишни таъминлаш учун экотуризмлардан сайёҳлик йўналишда оқилона фойдаланиш



ЭКОТУРИЗМ УЧ ХИЛ ФУНКЦИОНАЛ ВАЗИФАНИ БАЖАРИШИ ЛОЗИМ



ЭКОТИЗИМЛАРНИ МУҲОФАЗА ҚИЛИШ



ТАБИАТ КОМПОНЕНТЛАРИДАН ОҚИЛОНА ФОЙДАЛАНИШ



БУЗИЛГАН ЭКОТИЗИМЛАРНИ ҚАЙТА ТИКЛАШ